

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MAGISTRATURA BO'LIMI

**Qo'lyozma huquqida
UDK: 336.22**

BEGIMQULOV ELDOR BERDIQUL O'G'LI

**BYUDJET TASHKILOTLARINING BYUDJETDAN TASHQARI
MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISHNI KENGAYTIRISH
YO'NALISHLARI**

Mutaxassislik: 5A230601-«Davlat moliyasini boshqarish»

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

i.f.n. A.Shernaev.

TOSHKENT-2017

KIRISH.....	3
I BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUDJET TASHKILOTLARINING BUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	9
1.1. Budget tashkilotlarini moliyalashtirishda budgetdan tashqari mablag'larning o'rni.....	9
1.2. Davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda budget tashkilotlarining ahamiyati va ularning tashkiliy-huquqiy asoslari.....	15
1.3. Budget tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirish manbalari va unda budgetdan tashqari manbalarning ahamiyati.....	24
I bob bo'yicha xulosa.....	33
II BOB. BUDJET TASHKILOTLARINING BUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARDAN FOYDALANISH AMALIYOTI.....	34
2.1. Budget tashkilotlari budgetdan tashqari mablag'larini shakllantirish amaliyoti.....	34
2.2. Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'laridan foydalanish amaliyoti.....	47
2.3. Budget tashkilotlarida budgetdan tashqari mablag'larning nazorati.....	58
II bob bo'yicha xulosa.....	65
III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA BUDJET TASHKILOTLARINING BUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISHNI KENGAYTIRISH YO'NALISHLARI.....	67
3.1. Budget tashkilotlari faoliyatini yaxshilash va budget mablag'laridan foydalanishni takomillashtirish masalalari.....	67
3.2. Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'larini shakllantirishni kengaytirish yo'nalishlari.....	75
III bob bo'yicha xulosa.....	79
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	81
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.....	85

KIRISH

Magistrlik dissertasiya ishi mavzusining dolzarbligi. Budget tizimida bosqichma-bosqich amalga oshirilgan islohotlar natijasida Davlat budjeti ijrosini amalga oshirishning mukammal me'yoriy huquqiy hamda tashkiliy asosi yaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Budget muassasalarini mablag' bilan ta'minlashni takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori, "Budget tashkilotlari va budgetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom, "Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Yo'riqnoma, "O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetidan mablag' bilan ta'minlanadigan tashkilotlarning davriy moliyaviy hisobotlarini tuzish, tasdiqlash hamda taqdim qilish bo'yicha qoidalar" va boshqa shu kabi me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Davlat budjeti ijrosining ushbu me'yoriy hujjatlar doirasida amalga oshirilishi budget daromadlari va xarajatlari o'zaro muvofiqligini ta'minlab kelmoqda.

"Samarali mehnat uchun zarur sharoitlar, munosib ish haqi, zamonaviy uy-joylar, sifatli ta'lim va tibbiy yordam, dam olish va hordiq chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish – bularning barchasi iqtisodiy sohadagi islohotlarimiz mohiyati va mazmunini belgilab beradigan muhim omillardir. Shu borada nafaqat eng kam oylik ish haqini, balki budget tashkilotlarida ham, xo'jalik yurituvchi subyektlarda ham o'rtacha ish haqi miqdorini, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini bosqichma-bosqich ko'paytirish e'tiborimiz markazida bo'ladi" - deyдилar Prezidentimiz Sh. M. Mirziyayev o'z ma'ruzalarida¹.

Budget mablag'laridan oqilona va samarali foydalanish, budget taqchilligini oldini olish dolzarb masalalardan biri sanaladi. "Albatta, Davlat budjeti o'lchovsiz emas, mablag'larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun va oqilona ishlatishni

¹ "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. 07.12.2016 yil. www.uza.uz- internet sayti ma'lumotlari asosida

ta'minlash zarur. Bu – hammaga ravshan va rad etib bo'lmaydigan haqiqat" – deydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'z nutqlarida².

Budjet tashkilotlari budjet mablag'larining asosiy iste'molchisi hisoblanib, Davlat budjeti xarajatlarini tashkil etadi va xarajatlar smetasi asosida budjetdan moliyalashtiriladi. Shuningdek, budjet tashkiloti qonunchilikka muvofiq budjetdan tashqari mablag'lar yuzasidan tashkil bo'lish manbalari va foydalanish yo'nalishlari ko'rsatilgan holda budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetalar doirasida xarajatlarni amalga oshiradi. Oxirgi yillarda davlat moliyasini isloh qilish loyihasini amalga oshirish doirasida so'nggi natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish tamoyillarining joriy qilinishi, o'rta muddatli byudjet istiqbollari belgilash siyosatining ilgari surilishi, davlat budjetining g'azna ijrosiga o'tilishi hamda budjet siyosatidagi boshqa o'zgarishlarning amalga oshirilishi budjet tashkilotlarida o'z xarajatlarini aniqlash va smetalarni ishlab chiqish, budjetdan tashqari mablag'larni safarbar qilish tartiblarini takomillashtirishni talab etmoqda.

Magistrlik dissertatsiya ishi obyekt va predmeti. Budjet tashkilotlarini budjetdan tashqari jamg'armalarini shakllantirish va ularni sarf etilishi, hususan budjet tashkilotlari va Toshkent moliya institutining budjetdan tashqari mablag'larini shakllantirish hamda ulardan foydalanish tizimi magistrlik dissertatsiya ishining ob'ekti hisoblanadi. Magistrlik dissertatsiya ishi predmeti sifatida budjet tashkilotlarini moliyalashtirish, hususan budjet tashkilotlarini budjetdan tashqari mablag'larining shakllanishi va ularni sarf etish munosabatlari dissertatsiya ishining predmeti bo'lib hisoblanadi.

Magistrlik dissertatsiya ishi maqsadi va vazifalari. Respublikamizda faoliyat yuritayotgan budjet tashkilotlarida smetali moliyalashtirish tartibini o'rganish, muassasalar ehtiyojlarini budjetdan tashqari manbalar evaziga qondirish va ularni moliyalashtirishning ko'p kanalli tizimini takomillashtirishga qaratilgan asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

² Sh.M. Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.

Magistrlik dissertatsiya ishining oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalar belgilab olindi:

- davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda budget tashkilotlarining ahamiyati va ularning tashkiliy-huquqiy asoslarini o'rganish;
- budget tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirish manbalari va unda budgetdan tashqari manbalarning ahamiyatini o'rganish;
- budget tashkilotlari budgetdan tashqari mablag'larini shakllantirish amaliyotini tahlil etish;
- budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'laridan foydalanish amaliyotini tahlil qilish;
- budget tashkilotlari faoliyatini yaxshilash va budget mablag'laridan foydalanishni takomillashtirish masalalarini tadqiq etish;
- budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'larini shakllantirishni kengaytirish yo'nalishlarini tadqiq etish;
- izlanishlar asosida budget tashkilotlarida budgetdan tashqari mablag'larni jalb qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi.

- iqtisodiyotni raqobatbardoshligini oshirish sharoitida budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'laridan foydalanishni tashkil etish borasida ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.
- iqtisodiyotni barqaror rivojlanishini ta'minlash sharoitida budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'laridan foydalanishning me'yoriy-huquqiy asoslari va uning o'ziga xos xususiyatlari o'rganildi;
- Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'laridan foydalanishning tashkil etish mexanizmini takomillashtirish yo'llari bo'yicha ilmiy - amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.
- budget mablag'laridan maqsadli foydalanish va budget tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirish hamda ularni rejalashtirishni amalga oshirish bo'yicha ilmiy takliflar berildi;

- budget mablag'laridan maqsadli foydalanishda budget tashkilotlari budgetdan tashqari mablag'larini shakllantirish usulini qo'llash va tashkil etishning nazariy asoslari ishlab chiqildi;

- oliy ta'lim muassasalarida budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladigan 4-guruh xarajatlari sarfini amalga oshirish bo'yicha namunaviy tartib-qoida va tavsiyalar ishlab chiqildi;

- budget tashkilotlarida ashyoviy tekshirish usulidan foydalanish bo'yicha moliyaviy nazoratning uslubi ishlab chiqildi. Ashyoviy tekshiruv usulini qo'llash vositasida oliy ta'lim muassasasi aktivlar butligi ta'minlanadi. Ularning saqlanishi va samarali foydalanilishi 16-20 foizga oshadi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Magistrlik dissertatsiya ishi yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalariga asosan ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilishi mamlakatimizda budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'larini samarali tashkil etilishiga olib kelishi mumkin.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi. Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'laridan samarali foydalanishning turli yo'nalishlari jumladan, chet ellik olimlardan Markaryan E.A, Malaxova N.G, Mantenya N.G, Yudjin Stenli, Berdnikova T.B, Abramova M.A, Kislov D.V, mamlakatimiz olimlaridan O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Karimov I.A, Vaxobov A, Srojiddinova Z, B.Berkinov, A.Vaxobov., O.K.Iminov, T.S.Malikov, Z.T.Mamatov, O.O.Olimjonov, M.Ostonaqulov, M.Q.Pardayev, M.M.Tulaxodjayeva, T.Sh.Eshnazarov, Sh.V.G'aniyev, T.Jurayev va boshqalar ilmiy tadqiqot ishi mavzusiga oid sohada tegishli tadqiqotlarni olib borganlar. Aynan budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'laridan samarali foydalanish sohasida tadqiqotlar olib borgan Sh.V.G'aniyevning ilmiy ishida «Iqtisodiyotni modernizatsiyalash bosqichida ta'lim tizimidagi budget tashkilotlari budgetdan tashqari mablag'laridan foydalanishning takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish» maqsad qilib belgilangan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida budgetdan tashqari mablag'laridan

foydalanishning tashkiliy-uslubiy asoslarini qo'llash muammolari o'z yechimini topmaganligi, bu sohada ilmiy ishlarning samarali tashkil etish muammosini tadqiq etish foydadan holi emas.

Tadqiqotning metodlari. Dissertatsiyada ekspert baholash, induksiya va deduktsiya, iqtisodiy-matematik modellash, statistik, korrelyatsion va regression tahlil usullari va ilmiy prognozlash usullari qo'llangan.

Magistrlik dissertatsiya ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Magistrlik dissertatsiya ishining nazariy ahamiyatini budjet tashkilotlarini budjetdan tashqari mablag'larining shakllanishi, ularning budjet tashkilotlari moliyaviy resurslari tarkibidagi o'rni va ahamiyati, mazmuni, vazifalari, tashkiliy-huquqiy asoslari ochib berilganligi, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'laridan foydalanish va ularni shakllantirish mehanizmining batafsil yoritib berilganligidadir. Ishning amaliy ahamiyati shundaki, unda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'larining shakllanishi va ulardan foydalanish amaliyotini kompleks tahlil qilish asosida uning samarali tashkil etilishi, shu jumladan uning samaradorligini ta'minlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Magistrlik dissertatsiya ishining tarkibiy tuzilishi. Magistrlik dissertatsiya ishi kirish, o'z ichiga olti paragrafni qamrab olgan uch bobni, xulosalar va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, ishni mazmunini yoritishda 12 ta rasm, 4 ta jadval shakllantirilgan bo'lib, ishning umumiy hajmi 90 betni tashkil etadi.

Magistrlik dissertatsiya ishining kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning ob'yekti, predmeti, nazariy va amaliy ahamiyati bayon etilgan.

Magistrlik dissertatsiya ishining birinchi bobida O'zbekiston Respublikasida budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'larini shakllantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari o'rganilgan.

Magistrlik dissertatsiya ishining ikkinchi bobida budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish amaliyoti keltirilgan.

Magistrlik dissertatsiya ishining uchinchi bobida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘larini shakllantirishni kengaytirish yo‘nalishlari tadqiq etilgan.

Magistrlik dissertatsiya ishining xulosa va takliflar qismida olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari yuzasidan shakllantirilgan xulosalar hamda ishlab chiqilgan amaliy taklif va tavsiyalarning qisqacha mazmuni o‘z ifodasini topgan.

I BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUDJET TASHKILOTLARINING BUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Budjet tashkilotlarini moliyalashtirishda budjetdan tashqari mablag'larning o`rni

Davlat budjetiga to'lanadigan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar yagona g'azna hisobvarag'iga kiritilib, ularga tegishli respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, mahalliy budjetlar, davlat maqsadli jamg'armalari daromadlarida aks ettiriladi. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari yagona g'azna hisobvarag'iga kiritilib, ular mazkur tashkilotlarning daromadlarida aks ettiriladi.


Davlat budjetiga chet el valyutasida to'lanadigan soliqlar, yig'imlar va majburiy to'lovlar, shuningdek budjet tashkilotlarining chet el valyutasida tushadigan budjetdan tashqari mablag'lari G'aznachilikning bankdagi valyuta hisob varaqlariga kiritiladi.

Budjetni g'azna ijrosiga o'tilishi budjet mablag'lari bilan birga budjetdan mablag' oluvchi tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag'lari ham to'laligicha g'azna ijrosiga qamrab olindi.

Davlat budjeti ijrosining G'aznachilik tizimi joriy qilinib, bujet daromadlari va xarajatlarining ijrosi kassa usulida amalga oshirilishi mablag'larni samarali va maqsadli sarflash hamda nazorat qilish imkoniyatini bermoqda. Budjet tashkilotlari xarajatlarining to'lovi g'aznachilik orqali amalga oshirilib, budjet mablag'larini ortiqcha band qilmaslikni ta'minlamoqda. Islohotlarni amalga oshirish davomida budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari ham g'aznachilikka qamrab olinib uning kassa ijrosi ham g'aznachilik tomonidan amalga oshirilmoqda. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'larining tashkilot shaxsiy hisobraqamiga kelib tushishi va sarflanishi kassa usulida g'aznachilikda hisobga

olinadi. Budget tashkilotlarida esa budgetdan tashqari mablagʻlarning tashkilot shaxsiy hisobraqamiga kelib tushishi va sarflanishi kassa va hisob usulida aks ettiriladi.

Budget tashkilotlari Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414 sonli “Budget tashkilotlarini mablagʻ bilan taʼminlash tartibini takomillashtirish toʻgʻrisida”gi qaroriga asosan budgetdan tashqari mablagʻlarni shakllantirishlari mumkin.



1.1-rasm. Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablagʻlari³.

Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablagʻlari gʻaznachilikka qamrab olinib, ular boʻyicha alohida shaxsiy gʻazna hisobvaraqlar ochiladi. Shaxsiy gʻazna hisobvaraqlari ochiladigan quyidagi budgetdan tashqari mablagʻlar mavjud:

³ Meʼyoriy xujjatlar asosida magistrant tomonidan tayyorlangan.


to'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblardan tushgan mablag'lar, ta'lim muassasalarida to'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar, rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari, boshqa budjetdan tashqari mablag'lar, boshqa hisobvaraqlardagi pul mablag'lari, valyuta hisobvarag'i, budjet tashkilotining vaqtincha ixtiyorida bo'ladigan mablag'lar.

Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-sonli "Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq budjet tashkilotlarini budjetdan tashqari mablag'lari Moliya vazirligining G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalarida ochilgan hisob raqamlarida hisobot choragining oxirgi ish kuni oxirida budjet mablag'lari bo'yicha tejab qolingan mablag'lar, faoliyati turiga muvofiq tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan olingan daromadlar, balansida bo'lgan davlat mulkini ijaraga berishdan qonun hujjatlariga muvofiq olingan mablag'larning bir qismi, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan beriladigan homiylik yordami (beg'araz yordam) hisobidan shakllantirilishi belgilangan. Shuningdek, budjetdan tashqari mablag'lari hisobiga birinchi navbatda kreditorlik qarzlarni tugatish, moddiy texnika ba'zasini mustaxkamlash, xodimlarni moddiy rag'batlantirishga yo'naltirilishi belgilangan.

Ta'lim muassasalarida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1999 yil 6 avgustda 795-son bilan ro'yxatdan o'tgan "O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shakli va tushgan mablag'larni taqsimlash tartibi haqida" Nizomga ko'ra o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan mablag'lar tushimi amalga oshiriladi va ular hisobiga xarajatlar amalga oshiriladi.

Budjet tashkilotlarining boshqa budjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha boshqa tushumlar ikkilamchi xom ashyoni topshirishdan tushgan tushumlar, keraksiz va eskirgan moddiy qiymatliklarni sotishdan tushgan tushumlar, qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa tushumlar hisobidan shakllanadi va ular hisobiga xarajatlar amalga oshiriladi.

Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lar manbalarini quyidagicha tavsiflash mumkin:



1.2-rasm. Budjetdan tashqari mablag'lar manbalari⁴.

⁴ Magistrant tomonidan ishlab chiqilgan

Budjet tashkilotlari yuqorida keltirilgan manbalar bo'yicha budjetdan tashqari mablag'lardan foydalanadi. Ya'ni har bir manba bo'yicha alohida shaxsiy hisobvaraqlar belgilangan tartibda moliya organlari tomonidan ochiladi va g'azna dasturiga kiritiladi.

Moliya organlari tomonidan budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari uchun hisobvaraqlari quyidagi hujjatlar asosida ochiladi:

a) moliya organi rahbari yoki uning o'rnini bosuvchi shaxsning ruxsat beruvchi yozuvi qo'yilgan budjetdan mablag' oluvchining arizasi.

Agar, budjetdan mablag' oluvchi bir vaqtning o'zida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan, quyi budjetdan mablag' oluvchilar uchun budjet mablag'larini taqsimlovchi bo'lsa, tegishli shaxsiy hisobvaraqlar ochish uchun bir nusxada ariza, unga ilova qilib xizmat ko'rsatiladigan quyi budjetdan mablag' oluvchilarning ro'yxati taqdim etiladi.

b) budjetdan tashqari mablag'larning tushumlari va xarajatlari limiti ko'rsatilgan (tushumlari va mablag'larning xarajat qilinish yo'nalishlari limitlanmagan byudjetdan tashqari mablag'lari bundan mustasno) tegishli smeta xarajatlarining nusxasi.

Bunda, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan, quyi budjetdan mablag' oluvchilar xarajatlarining o'rnatilgan tartibda hisobini yurituvchi va xizmat ko'rsatuvchi budjetdan mablag' oluvchilar uchun, xizmat ko'rsatilayotgan quyi budjetdan mablag' oluvchilarning budjetdan tashqari xarajatlari hisobini yuritish uchun (budjet tasnifi xarajatlarining har bir paragrafi bo'yicha tuzilgan umumiy xarajatlar smetasi asosida) hisobvaraqlar ochiladi.

Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha shaxsiy hisobvaraqlarini ochish uchun ilgari budjet mablag'lari bo'yicha hisobvaraqlarni ochish uchun taqdim etilgan imzo namunalari kartochkalari ishlatiladi.

Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari shaxsiy hisobvaraqlarining unikal raqami yigirma yetti razryaddan iborat bo'lib:

Razryad raqamlari																										
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27

shulardan:

1 — 6 gacha razryadlar — tasdiqlangan mablag'larning manbalari va byudjet darajasi Tasnifiga muvofiq mablag'larning manbalar kodi va budjet darajasi;

7 — 9 gacha razryadlar — tasdiqlangan valyutalar klassifikatoriga muvofiq valyuta kodi;

10 — 14 gacha razryadlar — tasdiqlangan hududlar Tasnifiga muvofiq hududiy tegishlilik kodi;

15 — 24 gacha razryadlar — Budjetdan mablag' oluvchilar bo'yicha budjet tasnifining tegishli ko'rsatkichlari kodlari, bunda:

15 — 21 gacha razryadlar — Xarajatlarning vazifa jihatdan tasnifining tegishli kodi;

22 — 24 gacha razryadlar — Tashkiliy tasnifning tegishli kodi;

25 — 27 gacha razryadlar — budjet tashkilotlarining shaxsiy hisobvaraqa raqami kodi.

Budjetdan mablag' oluvchilarning budjetdan tashqari mablag'lari uchun hisobvaraqlar ochish uchun ilgari budjet mablag'lari bo'yicha hisobvaraqlarni ochish uchun taqdim etilgan imzo namunalari kartochkalari ishlatiladi.

Budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha yuridik va moliyaviy majburiyatlarning qabul qilinishi, shuningdek budjetdan tashqari mablag'larning kassa xarajatlari kelib tushgan budjetdan tashqari mablag'lar doirasida amalga oshiriladi va budjet mablag'lari kabi bir xil tartibda rasmiylashtiriladi.

Budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'lardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari bor va ular quyidagilardan iborat:

- budjetdan tashqari mablag'lardan foydalanish kassa usulida amalga oshirilishi;

- budjetdan tashqari mablag'lar manbaalari bo'yicha alohida shahsiy hisob varaqalarida aks ettirilishi;
- budjetdan tashqari mablag'lar tushumi hamda ular hisobiga xarajatlarni budjet tasnifi asosida aks ettirilishi;
- budjetdan tashqari mablag'lar smetalar asosida xarajat qilinishi;
- budjetdan tashqari mablag'lardan foydalanishda qat'iy qonunchilik talablariga amal qilish.

1.2. Davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda budjet tashkilotlarining ahamiyati va ularning tashkiliy-huquqiy asoslari

Budjetdan mablag'larni taqdim etishning metodlari budjetdan moliyalashtirishning muhim elementi bo'lib hisoblanadi. Ularning yordamida moliya organlari budjetda ko'zda tutilgan tadbirlarni pul mablag'lari bilan ta'minlaydi, pul mablag'laridan foydalanishda yuqoriroq natijalarga erishish uchun mablag'larni qayta o'zgartirib taqdim etishni amalga oshiradi, moliyaviy resurslarni taqsimlashda tarkib topayotgan proportsiyalarni tartibga soladi.

Davlat tomonidan moddiy ishlab chiqarish sohasi va uy-joy-kommunal xo'jaligiga qilinadigan xarajatlar mamlakat iqtisodiyotini moliyalashtirish xarajatlariga kiradi. Bunda budjet mablag'lari vazirliklar, idoralar va korxonalarga ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha xarajatlarga (kapital qo'yimalarga), oddiy takror ishlab chiqarishni ta'minlashga (subsidiyalar, dotatsiyalar va transfertlar), operatsion xarajatlarga va boshqa xarajatlarga beriladi.

Mamlakat iqtisodiyotini moliyalashtirish xarajatlari vazirliklar, idoralar va korxonalar bo'yicha rejalashtiriladi hamda bir vaqtning o'zida ma'lum maqsadlarga mo'ljallanganligi bo'yicha ko'zda tutiladi. Bunda budjet mablag'larining asosiy qismi iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga, ya'ni sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi va transportga yo'naltiriladi.

Budjet mablag'laridan maqsadli foydalanish nuqtai-nazaridan kapital qo'yimlarni moliyalashtirish iqtisodiyotni rivojlantirishda eng muhim ahamiyatga egadir. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish maqsadlariga mo'ljallangan asosiy fondlarning yangilarini yaratish va harakatdagilarini kengaytirishga uchun pul mablag'larini taqdim etishga kapital qo'yimlarni moliyalashtirish deyiladi. Budjet resurslarining cheklanganligi uchun ular investitsiyalarning cheklangan doirasiga, ya'ni maqsadli dasturlarga kiritilgan yoki hokimiyatning ijroiya organlari qarori bo'yicha amalga oshirilayotgan investitsiyalarga beriladi.

“Iqtisodiyot nazariyasi” va “Moliya” fanlaridan bizga ma'lumki, iqtisodiyot va ijtimoiy hayot sohalari ikki yirik sohadan iborat:

1. Moddiy ishlab chiqarish sohasi.
2. Nomoddiy ishlab chiqarish (yoki noishlab chiqarish) sohasi.

Moddiy ishlab chiqarish sohasida moddiy qiymatliklar yaratiladi, tovarlar ishlab chiqariladi, xizmatlar ko'rsatiladi, ishlar bajariladi.

Noishlab chiqarish sohasida turli xizmatlar (maishiy, kommunal, ijtimoiy, davlat boshqaruvi, mamlakat mudofaasi, milliy xavfsizlik, ichki ishlar xizmatlari) ko'rsatiladi.

Noishlab chiqarish muassasa va tashkilotlarining bir qismi tijorat hisobi asosida ish yuritsalar, bir qismi notijorat faoliyatini olib boradilar. Bu faoliyatning pirovard maqsadi tijorat foydasiga ega bo'lish bo'lmaydi, lekin ularning qo'shimcha daromadlarni jalb qilishga bo'lgan intilishlarini ham inkor etmaydi. Bunday muassasalarning aksariyati “budjet tashkiloti” maqomida faoliyat yuritadi.

O'zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 4-moddasida budjet tashkilotlariga quyidagicha ta'rif berilgan: “Budjet tashkiloti – davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko'ra tashkil etilgan, davlat budjeti mablag'lari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilot”⁵.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi. 4-modda.

Bu tashkilotlar asosan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lib, ularning faoliyati bu maqomning barcha talablariga (moddiy-texnika bazasi va faoliyat sohasi bo'yicha xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanish uchun etarli sharoitning mavjudligi, buxgalter kadrlarning mavjud bo'lishi, shaxsiy hisobraqamining mavjud bo'lishi va sh.k.) javob berishi kerak. Lekin bugungi kunda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan budget tashkilotlari ham faoliyat yuritib kelmoqda. Ularga tegishli davlat boshqaruv organlari (bosh bo'linma sifatidagi budget tashkiloti) huzuridagi markazlashtirilgan buxgalteriyalar va tegishli hokimiyatlarning buxgalteriyalari tomonidan xizmat ko'rsatiladi (masalan, tuman madaniyat bo'limiga qarashli markaziy kutubxonalar tizimi, tegishli hokimiyatlar bo'linmalariga qarashli veterinariya uchastkalari va punktlari va sh.k.).

Davlat budjeti hisobiga mablag' bilan ta'minlanadigan tarmoqlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, budget tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish, budget mablag'laridan samarali va aniq foydalanish maqsadida 1999 yil 3 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 414-son Qarori qabul qilindi. Mazkur Qaror 2000 yil 1 yanvardan boshlab budget tashkilotlari xarajatlarini mablag' bilan ta'minlashning yangi tartibini belgilab berdi. U quyidagilarni nazarda tutadi:

- budget mablag'laridan tejab, samarali va aniq foydalanish hamda budget intizomini mustahkamlash uchun budget tashkilotlari rahbarlarining mustaqilligini kengaytirish va mas'uliyatini oshirish;

- budget tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash mexanizmini soddalashtirish va budget mablag'laridan foydalanishda yuqori natijalarga erishish maqsadida mavjud mablag'larni oqilona taqsimlash uchun imkoniyatlar yaratish;

- ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni, ish haqiga qo'shimchalar, kapital qo'yilmalar va boshqa xarajatlarni guruhlagan holda bir satrda mablag' bilan ta'minlash usulida budget tashkilotlarini normativlar bo'yicha (faoliyat turiga ko'ra) mablag' bilan ta'minlashning yangi tartibini joriy etish;

– budjetdan mablag‘ bilan ta‘minlashni budjet tashkilotlarining faoliyat turi bo‘yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish faoliyatini kengaytirish bilan birga qo‘shib olib borish;

– budjet tashkilotlari xodimlari mehnatini rag‘batlantirish, ular faoliyati samaradorligini oshirish va kadrlarning o‘rnashib qolishi uchun shart-sharoitlar yaratish.

Mazkur Qarorning to‘liq ijrosini ta‘minlash maqsadida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan faoliyatdagi tashkilotlarga qo‘shimcha ravishda 2000 yildan boshlab bir qator budjet tashkilotlari va muassasalariga yuridik shaxs maqomi berilgan. Bular:

Maorif sohasida:

- kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, bolalar uylari;
- umumta‘lim maktablari, gimnaziyalar, litseylar, maktablararo o‘quv-ishlab chiqarish kombinatlari – o‘quvchilar kontingenti 400 kishidan kam bo‘lmasa;
- internatlar – o‘quvchilar kontingenti 200 kishidan kam bo‘lmasa;
- maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari – bolalar kontingenti 350 kishidan kam bo‘lmasa;
- viloyat va tuman (shahar) ahamiyatiga molik maktabdan tashqari muassasalar;

Sog‘liqni saqlash sohasida:

- kasalxonalar (iqtisodlashtirilgan markazlar bilan), tug‘ruqxonalar, tibbiy-sanitariya qismlari, dispanserlar, shifoxonalar;
- bolalar uylari, bolalar sanatoriylari, kattalar uchun sil kasalliklari sanatoriylari;
- tajriba tariqasida ochilgan qishloq vrachlik punktlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 26 fevral “Xalq ta‘limi muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta‘minlash doirasida barcha turdagi ta‘lim muassasalariga ularning

kontingentidan (o'quvchilar, bolalar, tarbiyalanuvchilar sonidan) qat'iy nazar yuridik shaxs maqomi berildi.

Budjet tashkilotlarini moliyalashtirish shartlari va ularning budjet hisobini yuritish tartibi budjet to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Davlat budjetidan va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlaridan mablag'lar oladigan yuridik yoki jismoniy shaxs budjet mablag'lari oluvchidir. Budjet mablag'lari oluvchi budjet tashkiloti maqomiga ega bo'la olmaydi. Budjet mablag'lari oluvchini Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari mablag'lari hisobidan moliyalashtirish shartlari budjet to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Budjet mablag'larini taqsimlovchi — o'z tasarrufida O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan mablag' oladigan tashkilotlarga ega bo'lgan yuridik shaxs, shuningdek O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkiloti yoki budjet mablag'lari oluvchidir.

Budjet tashkilotlarining faoliyatini yuritishi, ularni moliyalashtirish masalalari shuningdek, ularni budjetdan tashqari mablag'larini shakllantirish va rasmiylashtirish bilan bog'liq tashkiliy huquqiy asos quyidagi me'yoriy xujjatlar bilan tartibga solinadi.

Budjet tashkilotlari moliya tizimining noishlab chiqarish tarmoqlaridagi muassasalardir. Noishlab chiqarish soxasi, bu iqtisodiyotning moddiy boyliklar ishlab chiqarmaydigan tarmoqlar majmuidir. Ularga: boshqarish, maorif, madaniyat va boshqa jamoat tashkilotlari kiradi. Ular shaxsiy yordam va ijtimoiy xizmat ko'rsatishadi. Noishlab chiqarish soxasida ham turli xarakterga ega bo'lgan moliyaviy munosabatlar vujudga keladi va ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- tarmoq yoki muassasani (tashkilotni) o'zini budjet bilan orasidagi pul munosabatlari. Ular asosida budjet mablag'lar hisobidan tarmoq pul fondlari tashkil etiladi (ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va boshqalar). T'olov asosida ishlatayotgan tashkilotlar, budjetga belgilangan to'lovlarni o'tkazishlari mumkin;

- yuqori boshqaruv organlari bilan, ularga qarashli muassasalar (tashkilotlar) orasida, hamda oxirgilarni ichida vujudga kelayotgan munosabatlar. Ular, xo‘jalik sub’ektlarni ixtiyorida tarmoq fondlari bilan foydalanish, maqsadli pul fondlarni tashkil etish bilan birga sodir bo‘ladi, masalan ish xaqi, kapital ta’mirlash va x.k. Muassasalar va tashkilotlar ichida, ish xaqi va iqtisodiy rag‘batlantirish fondini tashkil etish va sarflash, hamda pul mablag‘larni maqsadli yo‘nalishlar bo‘yicha qayta taqsimlash bilan bog‘liq bo‘lgan moliyaviy munosabatlardir;

- turli tarmoqlar bilan xo‘jalik sub’ektlar o‘rtasida vujudga kelayotgan pul munosabatlari, shular ichida budjetdan tashqari fondlarni tashkil etish va foydalanish bilan bog‘liq bo‘lib ijtimoiy sug‘urta, pensiya va x.k.;

- xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar bilan xizmatni iste’mol qiluvchilar va xomiyarlar o‘rtasidagi pul munosabatlari. Ular asosida nomoddiy ishlab chiqarish sohadagi muassasalar va tashkilotlarning moliyaviy manbalari tashkil etiladi.

Nomoddiy ishlab chiqarish ham, moliyani tashkil etilishiga ta’sir etadi va birinchi o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, moliya jismoniy va yuridik shaxslarga xizmat ko‘rsatish jarayonini ifoda etadi. Xizmat ko‘rsatishni turli-tumanligi va iste’molchilarga ularni taqdim etish xarakteri bir turda bo‘lmasligi noishlab chiqarish sohasidagi muassasalarni va tashkilotlarni, to‘lov yoki to‘lovsiz ishlashga imkon yaratadi. Bu pul fondlarni tashkil etish tartibiga va manbalariga, ularni foydalanish printsiplari va yo‘nalishlariga ta’sir etadi. Noishlab chiqarish sohadagi muassasalar va tashkilotlarning moddiy asosi bo‘lib, tovar ishlab chiqarish sharoitida natural-moddiy va qiymat shakliga ega bo‘lgan, noishlab chiqarish fondlaridir. Shu fondlarni olish, yangilash, kengaytirish va ishlatish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar, moliyaviy munosabatlarni ifodalaydi.

Budjet tashkilotlari faoliyatining huquqiy asosini tashkil qiluvchi asosiy hujjatlar quyidagi jadvalda ko‘rsatib o‘tilgan:

Budjet tashkilotlari faoliyatining huquqiy asosini tashkil qiluvchi asosiy hujjatlar⁶

№	Xujjat nomi
1	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2	O'zbekiston Respublikasining "Budjet kodeksi" T. 2013 yil 26-dekabr
3	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni
4	"O'zbekiston Respublikasining 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjetining asosiy parametrlari to'g'risida"gi Prezident qarori. PQ-2699-son. 27.12.2016 y.
5	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining "Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2014 yil 15 dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2634)
6	O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2012 yil 5 oktyabrdagi "Budjet tashkilotlari daromadlari va xarajatlarining buxgalteriya hisobi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 74-sonli buyrug'i
7	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 12 avgustdagi "Budjet tashkilotlari tomonidan tadbirkorlik sub'ektlarining xayriya ehsonlari shaklidagi mablag'laridan foydalanishning oshkoraligi va samaradorligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi 227-son qarori
8	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010 yil 17 dekabrda "Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi 105-son buyrug'I (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2010 yil 22 dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2169)
9	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 8 apreldagi "Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 102-son qarori va boshqalar
10	O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2016 yil 22 noyabrdagi 88-son "O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi budjetlarining g'azna ijrosi qoidalarini tasdiqlash haqida" buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2016 yil 22 dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2850)

⁶ O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari asosida magistrant tomonidan tayyorlandi. www.lex.uz internet sayti ma'lumotlari asosida


Ular asosida maqsadli pul fondlarni tashkil etish va foydalanish vujudga keladi va shunda moddiy ishlab chiqarishda moliyani ikkinchi o'ziga xos xususiyati namoyon bo'ladi. Ularni uchinchi xususiyati xizmat ko'rsatish va uni iste'moli o'rtasida almashish davri yo'qligida. Modomiki xizmat o'z tabiati bo'yicha nomoddiy, u jamg'arilmaydi va yaratilishi bilan u uzoqlashib (yoki begonalashib) ketish kerak. Bu esa noishlab chiqarish sohasida, pul mablag'larni xarakatini, xarakterini, maqsadli pul fondlarni tashkil etish va foydalanish sharoitini va tartibini alohida, o'ziga xosligini ifodalaydi.

Noishlab chiqarish sohasining ko'p tarmoqlarini yuqori malakali, odatda oliy ma'lumotli, ishchilar tashkil etadi. Shuning uchun noishlab chiqarish soha aqliy mexnatni eng ko'p to'planishi bilan ajraladi va umumiy harajatlar ichida eng katta miqdorli bo'lib, ularga xizmat ko'rsatganlari uchun ish xaqi to'lashga sezilarli darajada mablag' ajratiladi. Natijada, noishlab chiqarish sohasida aqliy mexnatni samaradorligini oshirishga, uni rag'batlantirishga yo'naltirilgan spesifik moliyaviy mexanizmi bilan foydalanish zarurligida ifodalangan, moliyani, to'rtinchi o'ziga xos xususiyati aniqlanadi.

Noishlab chiqarish sohasining, odatda, o'z daromadlari bo'lmagan muassasalar uchun, pul mablag'lar davlat budjetidan ajratiladi, yoki u smetali moliyalashtirish deyiladi.

Smetali moliyalashtirish muassasani asosiy xarajatlarini qoplash uchun davlat budjetidan ajratilgan pul hajmini, aniq bir maqsadga qaratilganligi va choraklarga taqsimlanishini aniqlaydi. Noishlab chiqarish muassasalarini ta'minlash uchun budjet mablag'laridan tashqari, korxonalar, ijtimoiy va boshqa tashkilotlardan mablag'lar ajratilishi mumkin, lekin moliyalashtirishning asosiy manbai sifatida davlat budjeti bo'lib qoladi. Boshqa moliyaviy rejalaridan, yoki daromadlar va xarajatlar shaklida tuzilgan balansdan, smeta, smetali moliyalashtirish muassasalarini budjet bilan bo'ladigan munosabatlari bir tomonlama yoki faqat xarajatlar rejasini ifoda etib ajraladi. Agarda ayrim budjet muassasalarida ishlab chiqarish yoki boshqa faoliyatlardan daromadlar olinmasa, odatda, ular maxsus mablag'lar shaklida daromadlar va xarajatlar smetasida inobatga olinib, alohida

ishlatiladi. Bunda budget muassasasi smetasiga, muassasa normal ishlamoq uchun, xarajatlar to'liq xajmda kiritiladi, maxsus va budgetdan tashqaridagi mavjud bo'lgan mablag'lar inobatga olinmaydi.



1.3-rasm. Budget tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning taqdim etish xarakteriga ko'ra guruhlanishi⁷

Smeta noishlab chiqarish muassasalarining talablarini va davlat budgetini imkoniyatlarini inobatga olib va shartli ravishda davlat qarorlarini va boshqa normativ aktlarga, yo'riqnomalarga amal qilingan holda tuziladi. Budget muassasalarining xarajatlari har bir smetani ajratgan pulini, aniq bir maqsadga yo'naltirilganligini aniqlaydigan budget tasnifining moddasi, bo'limi va paragrafi bo'yicha taqsimlanadi yoki guruhlantiriladi. Muassasaning normal ishlashi uchun, mablag'lardagi haqiqiy talab har bir xarajatning o'ziga hos xisoboti bilan asoslanadi.

Ijtimoiy-madaniy xususiyatga, jamoat tartibini saqlash, boshqaruv va mudofaga ta'luqli bo'lgan rang-barang xizmatlarni ko'rsatayotgan xo'jalik

⁷ Ilmiy izlanishlar asosida magistrant tomonidan tuzildi

sub'ektlari notijorat asosida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni tashkil etadi.

Rejali iqtisodiyot davrida ushbu korxonalar xizmatining qariyb barchasi bepul ko'rsatilar edi. Keyingi yillarda aholini ijtimoiy-madaniy tadbirlarga bo'lgan talabini sifatli va o'z vaqtida ta'minlash maqsadida pullik xizmat ko'rsatish sohalari ham kengaya boshladi. Budget tashkilotlari moliyaviy resurslarining shakllanishi ikki xususiyatga bog'liq bo'ladi.

- ko'rsatayotgan xizmatlar ko'rinishi;
- iste'molchiga yetkazib berilishi (pullik yoki bepul).

Xozirgi kunda mamlakatimiz oldida murakkab va mas'uliyatli vazifa turibdi. Bu vazifani muvaffaqiyatli bajarish ko'p jihatdan moliyaviy xarakterdagi muammolarni hal etish bilan chambarchas bog'liq.

1.3. Budget tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirish manbalari va unda budgetdan tashqari manbalarning ahamiyati

Bugungi kunda budget tashkilotlarini moliyalashtirishning ko'p kanalli tizimi shakllangan bo'lib, ularni moliyalashtirishning quyidagi manbalari mavjud:

- davlat budjeti mablag'lari;
- davlatning budgetdan tashqari maqsadli jamg'armalari mablag'lari;
- ijtimoiy sug'urta mablag'lari;
- budget tashkilotlarning o'z mablag'lari (budgetdan tashqari tushumlari);
- hayriya va homiylik tashkilotlarining mablag'lari;
- xalqaro tashkilotlarning mablag'lari;
- yuridik va jismoniy shaxslardan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
- boshqa mablag'lar.

Budget tashkilotlari xarajatlarini mablag' bilan ta'minlash quyidagilarni nazarda tutadi:


- budjet mablag‘laridan tejab, samarali va aniq foydalanish hamda budjet va smeta-shtat intizomini mustahkamlash uchun budjet tashkilotlari rahbarlarining mustaqilligini kengaytirish va mas’uliyatini oshirish;

- budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash mexanizmini soddalashtirish va budjet mablag‘laridan foydalanishda yuqori natijalarga erishish maqsadida mavjud mablag‘larni oqilona taqsimlash uchun shart-sharoitlar yaratish;

- budjet tashkilotlari xodimlari mehnatini rag‘batlantirish, ular faoliyati samaradorligini oshirish va kadrlarning o‘rnashib qolishi uchun shart-sharoitlar yaratish.

Budjet tashkilotlari bo‘ysunuviga ko‘ra respublika budjeti va mahalliy (viloyat, tuman, shahar) budjetlardan mablag‘ bilan ta’minlanadilar, ularning joriy faoliyati budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlashning o‘rnatilgan tartibiga asosan moliyalashtiriladi, bunda yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan tashkilotlar mustaqil ravishda o‘z moliyaviy rejalarini xarajatlar smetasi shaklida qonunchilik bilan belgilangan tartibda ishlab chiqadilar. Xarajatlar smetasi – budjet tashkilotining unga ajratilgan budjet mablag‘larining hajmi, maqsadli yo‘nalishi va yil choraklari (har bir chorakning oylari) bo‘yicha taqsimlanishini belgilab beruvchi asosiy moliyaviy hujjatdir. Oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy resurslari ikki asosiy manba: davlat budjeti va budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan shakllanadi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2014 yil 14 noyabrdagi 74-son buyrug‘i bilan tasdiqlanib, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014 yil 15 dekabrda 2634-son bilan ro‘yxatga olingan “Budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi buyrug‘i ga muvofiq, budjet tashkilotlarida smetalarning quyidagi turlari amalda qo‘llaniladi:

- yakka (individual) smetalar;
- jamlanma smetalar;
- budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smetalar;



1.4-rasm. O‘zbekiston Respublikasida budjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalari⁸

Yakka smetalar yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan alohida olingan muassasa bo‘yicha tuziladi. Masalan, muayyan hududda (tuman yoki shaharda) joylashgan yuridik shaxs maqomida faoliyat qiluvchi davlat sog‘liqni saqlash muassasasi (kasalxona, qishloq vrachlik punkti, ixtisoslashgan dispanser va sh.k.) mustaqil ravishda budjetdan to‘lanishi ko‘zda tutilgan o‘z xarajatlarini yakka smeta asosida rejalashtiradi.


Jamlanma smetalar yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan va tegishli davlat boshqaruv organlari huzuridagi markazlashtirilgan buxgalteriyalar va tegishli hokimiyatlarning buxgalteriyalari tomonidan xizmat ko‘rsatilayotgan tashkilotlar bo‘yicha tuziladi.

⁸ Ilmiy izlanishlar asosida magistrant tomonidan ishlab chiqildi

O‘zbekiston Respublikasi Budget Kodeksida keltirilishicha, “jamlanma xarajatlar smetasi – budget mablag‘larini taqsimlovchi tomonidan uning tasarrufidagi budget tashkilotlarining va budget mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetalari asosida tuziladigan xarajatlar smetasi” hisoblanadi.

Budgetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smeta – tashkilotlar tomonidan joriy moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan hujjat bo‘lib, unda tashkil bo‘lish manbalari va ushbu mablag‘larning qonunchilikka muvofiq foydalanish yo‘nalishlari ko‘rsatilgan holda budgetdan tashqari daromadlar tushumlarining prognoz hajmlari aks ettiriladi. Masalan, oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida talabalarni o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag‘lar va ularni ishlatish yo‘nalishlari budget qonunchiligi bilan belgilangan tartibda budgetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smeta asosida rejalashtiriladi.

Budget tashkiloti va budget mablag‘lari oluvchilarning O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgeti hisobidan xarajatlari budgetdan ajratiladigan mablag‘lar doirasida va ularning xarajatlar smetalarida ko‘rsatilgan maqsadlarda amalga oshiriladi. Budget tashkilotlari xarajatlarni qoplash uchun budgetdan ajratiladigan mablag‘lardan tashqari boshqa daromad manbalari mavjud bo‘lganda, mazkur ko‘rsatilgan mablag‘lar bo‘yicha ham daromadlar va xarajatlar smetalarini tuzadi. Budget tashkilotlari va budget mablag‘lari oluvchilar xarajatlar smetalarini, daromadlar va xarajatlar smetalarini, shuningdek shtat jadvallarini normativ-huquqiy hujjatlar asosida mustaqil ravishda tuzadilar. Xarajatlar smetalari, daromadlar va xarajatlar smetalari, shtat jadvallari, shuningdek jamlanma xarajatlar smetalari va shtat jadvallari bir moliya yili muddatiga tuziladi va amal qiladi. Budget tashkilotlari va budget mablag‘lari oluvchilarning xarajatlari budget to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda vaqtinchalik xarajatlar smetasi asosida amalga oshiriladi.



1.5-rasm. Budjet tashkilotlari xarajatlar smetalarining guruhlanishi⁹

⁹ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2014 yil 14 noyabrdagi 74-son buyrug'i bilan tasdiqlanib, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014 yil 15 dekabrda 2634-son bilan ro'yxatga olingan "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'iga asosan muallif tomonidan ishlab chiqildi

Xarajatlar smetalarini, daromadlar va xarajatlar smetalarini tuzishda mehnatga haq to'lash miqdorlari va shartlari, tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun narx va ta'riflar:

- barcha tashkilotlar (mavsumiy yoki moliya yili mobaynida yangidan tuzilayotgan tashkilotlardan tashqari) bo'yicha — mazkur smetalar tuzilayotgan moliya yilining 1 yanvarida amalda bo'lgan shartlarda;

- mavsumiy yoki moliya yili mobaynida yangidan tuzilayotgan tashkilotlar bo'yicha — mazkur tashkilot faoliyat ko'rsatishi boshlangan oyning birinchi sanasi holatiga ko'ra hisobga olinadi.

Budjet tizimi budjetlari ijrosi jarayonida yuzaga keladigan barcha qo'shimcha xarajatlarga budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalariga budjet to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli o'zgartirishlar kiritiladi. Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi, vaqtinchalik xarajatlar smetalari, budjet mablag'larini taqsimlovchilarning jamlanma xarajatlar smetasi ming so'mda tuziladi. Budjet tashkilotlarining shtat jadvallari va budjet mablag'larini taqsimlovchilarining jamlanma shtat jadvallari so'mda tuziladi.

Xarajatlar smetasi va budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smeta bir yillik muddatga - 1 yanvardan 31 dekabrgacha bo'lgan davrga tuziladi (mavsumiy tadbirlar uchun yoki joriy moliya yilida ishga tushiriladigan tashkilotlar bo'yicha esa ularning mazkur yildagi faoliyat ko'rsatish oylariga tuziladi va amal qiladi).

Budjet qonunchiligida kelgusi moliya yili uchun davlat budjeti yil boshlangunga qadar qabul qilinmagan holatdagi xatti-harakatlar belgilab berilgan. Xususan, agar moliya yili boshlangunga qadar shu yilga mo'ljallangan davlat budjeti mamlakat qonun chiqaruvchi organi tomonidan qabul qilinmasa, budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash ular tomonidan tuzilgan vaqtinchalik xarajatlar smetasi asosida amalga oshiriladi.

Vaqtinchalik xarajatlar smetasi — budjet tashkilotining (yoki budjet mablag'lari oluvchining) xarajatlar smetasi tasdiqlanishiga va ro'yxatdan o'tkazilishiga qadar amal qiladigan hujjat bo'lib, unda qonun hujjatlaridagi

o'zgartirishlar hisobga olingan holda uning uchun nazarda tutilgan budjetdan ajratiladigan mablag'lar har oy uchun aks ettiriladi. Vaqtinchalik xarajatlar smetasi oylar kesimida birinchi chorakdan oshmagan davr uchun tuziladi, ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Bunda har oylik xarajatlar o'tgan moliya yilining oxirgi choragida budjet tashkiloti tomonidan sarflangan budjet mablag'larining uchdan bir qismidan oshib ketmasligi shart.

“Kelgusi moliya yilining birinchi choragi uchun budjet tashkilotlarining va budjet mablag'lari oluvchilarning vaqtinchalik xarajatlar smetalari joriy moliya yilining 25 dekabrigacha tuziladi, tasdiqlanadi va ro'yxatdan o'tkaziladi”¹⁰.

Vaqtinchalik xarajatlar smetasi asosiy smeta tasdiqlangunga qadar amalda bo'ladi, bunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetasidagi birinchi chorak uchun ko'zda tutilgan xarajatlar summasi tashkilotlarning vaqtinchalik xarajatlar smetasida rejalashtirilgan xarajatlar summasidan kam bo'lishi mumkin emas.

Budjet tashkilotlari o'zlarining xarajatlarini hisoblab chiqishda va smetalarni rejalashtirishda quyidagilarga amal qiladilar:

- O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari, Prezident farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining normativ hujjatlariga;

- budjet tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirishning normativ uslubiga;

- tovar va xizmatlarning davlat tomonidan tartibga solinadigan baholari va ta'riflariga, shuningdek, nodavlat korxonalar va tashkilotlarning ayrim tovarlari va xizmatlari baholariga;

- yuqori turuvchi tashkilotlar rahbarlarining o'zlari tasarrufidagi muassasalarning kelgusi yil uchun xarajatlar smetalarini tuzish masalalari bo'yicha ko'rsatmalari va takliflariga, agarda ular qonun hujjatlariga zid bo'lmasa;

- bolalar va boshqa ijtimoiy-madaniy tashkilotlarda ovqatlanishga ketadigan xarajatlar summasi tashkilotlarning ayrim turlari uchun qonun hujjatlari bilan


¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. 104-modda.

tasdiqdangan ovqatlanish me'yorlari va ovqatlanish kunlari sonidan kelib chiqib hisoblanadi;

– dori-darmonlarga ketadigan xarajatlar summasi qonun hujjatlari bilan belgilangan pul xarajatlari me'yoriga qarab hisoblab chiqiladi;

– ijtimoiy-madaniy tashkilotlarning ayrim guruhi uchun kiyim-kechak, poyafzal, choyshab, yotoq anjomlari va boshqa yumshoq jihozlar sotib olishga ketadigan xarajatlar moddiy ta'minotning amaldagi me'yorlari asosida, lekin ajratilgan mablag'lar doirasida hisoblanadi.

Budjet tashkilotlarini moliyalashtirishda budjetdan tashqari mablag'larning ahamiyati katta bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 44-moddasiga ko'ra budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari quyidagilardan tashkil topgan (1.6-rasm):



1.6-rasm. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari¹¹

- Budjet tashkilotining rivojlantirish jamg'armasi;
- Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi;

¹¹ O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 44-moddasiga asosan muallif tomonidan ishlab chiqildi.

- vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning budjetdan tashqari jamg‘armalari;

- budjet tashkilotlarining undiriladigan to‘lovlar hisobiga shakllantiriladigan budjetdan tashqari mablag‘lari.

Budjetdan mablag‘ oluvchilar budjet xarajatlarini amalga oshirish uchun g‘aznachilik bo‘linmalariga quyidagilarni:

a) budjet mablag‘lari bo‘yicha:

- doimiy xarajatlar smetalari moliya organlarida ro‘yxatga olinguniga qadar — birinchi chorak uchun oylar kesimida moliya bo‘limlarida ro‘yxatga olingan vaqtinchalik xarajatlar smetalari nusxalarini;

- doimiy xarajatlar smetalari moliya organlarida ro‘yxatga olingandan so‘ng - moliya organlarida ro‘yxatga olingan, oylar kesimida doimiy xarajatlar smetalarini;

b) budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha — moliya organlarida ro‘yxatga olingan, budjetdan tashqari mablag‘larning kelib tushishi va ishlatilishining cheklanishi oylar kesimida ko‘rsatilgan vaqtinchalik va aniqlangan xarajatlar smetalari nusxalarini taqdim etadilar (kelib tushishi va sarflanish yo‘nalishi cheklanmagan budjetdan tashqari mablag‘lar turlari bundan mustasno).

Budjetdan mablag‘ oluvchilar budjet mablag‘lari bo‘yicha xarajatlar smetalari nusxalarini va ularga ilovalarni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Zaxira jamg‘armasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi zaxira jamg‘armasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimligi zaxira jamg‘armalari mablag‘lari hisobiga va budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smetalarni, ular moliya organlarida o‘rnatilgan tartibda ro‘yxatga olinganidan so‘ng, g‘aznachilik bo‘linmalariga taqdim qiladilar. Kapital qurilish ob‘yektlari bo‘yicha kapital qurilish buyurtmachilari g‘aznachilik bo‘linmalariga “Davlat budjeti g‘azna ijrosi qoidolari”da keltirilgan shaklga muvofiq, tegishli moliya organlari bilan kelishilgan, tasdiqlangan qurilishlarning manzilli ro‘yxati (loyiha-tadqiqot ishlarining manzilli ro‘yxati) va qurilishlarning titul ro‘yxati asosida

tuzilgan xarajatlarning oylar kesimidagi yoyilmasini (Davlat budjeti mablagʻlari hisobidan kapital qurilish obʻektlari boʻyicha xarajatlar smetasi) taqdim etadilar.

I bob boʻyicha xulosa

Xulosa qilib aytganda, budget tashkilotlarining qonunchilik bilan belgilab qoʻyilgan rasmiy manbalardan oladigan daromadlari va tushumlari hamda ular boʻyicha xarajatlarni amalga oshirish davlat budjeti gʻazna ijrosi mexanizmlari bilan qamrab olingan boʻlib, budget tashkilotiga tegishli mablagʻlarning (budget va nobudget) samarali, maqsadga muvofiq va oqilona ishlatilishini taʼminlash uchun xizmat qiladi, bu mablagʻlarning shakllanishi va ishlatilishining dastlabki va joriy nazoratini amalga oshirish imkonini beradi.

Davlat funktsiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga koʻra tashkil etilgan, Davlat budjeti mablagʻlari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilot budget tashkilotidir. Davlat budgetidan va davlat maqsadli jamgʻarmalari budgetlaridan mablagʻlar oladigan yuridik yoki jismoniy shaxs budget mablagʻlari oluvchidir. Budget mablagʻlari oluvchi budget tashkiloti maqomiga ega boʻla olmaydi. Budget mablagʻlarini taqsimlovchisi esa oʻz tasarrufida Oʻzbekiston Respublikasining respublika budgetidan mablagʻ oladigan tashkilotlarga ega boʻlgan yuridik shaxs, shuningdek Oʻzbekiston Respublikasining respublika budgetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkiloti yoki budget mablagʻlari oluvchi hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasining Budget kodeksining 44-moddasiga koʻra budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamgʻarmalari quyidagilardan tashkil topgan: budget tashkilotining rivojlantirish jamgʻarmasi, Tibbiyot tashkilotlarining moddiy ragʻbatlantirish va rivojlantirish jamgʻarmasi, vazirliklar, davlat qoʻmitalari va idoralarning budgetdan tashqari jamgʻarmalari, budget tashkilotlarining undiriladigan toʻlovlar hisobiga shakllantiriladigan budgetdan tashqari mablagʻlari.

II BOB. BUDJET TASHKILOTLARINING BUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARDAN FOYDALANISH AMALIYOTI


2.1. Budjet tashkilotlari budjetdan tashqari mablag'larini shakllantirish amaliyoti

Budjet tashkilotlari budjet mablag'lari doirasida faoliyat yuritish bilar bir qatorda, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalarini shakllantirish va ulardan foydalanish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi bilan belgilab qo'yilishicha, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan manbalardan budjet tashkiloti tasarrufiga kelib tushadigan mablag'lar hisobidan shakllantiriladi¹².

Budjet Kodeksining 60-moddasiga muvofiq, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari qo'shimcha daromadlari "Budjet tashkilotining rivojlantirish jamg'armasi" deb nomlangan jamg'armada jamlanadi. Bu jamg'armani shakllantirish quyidagi manbalar hisobidan amalga oshiriladi:

- hisobot choragining so'nggi ish kuni oxirida xarajatlar smetasi bo'yicha tejalgan mablag'lar, bundan kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish uchun nazarda tutilgan mablag'lar mustasno;
- faoliyat ixtisosligi bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;
- budjet tashkiloti balansida turgan mol-mulkni ijaraga berishdan olingan mablag'larning bir qismi;
- belgilangan tartibda budjet tashkilotlari tasarrufida qoldiriladigan mablag'lar;
- homiylikdan olingan mablag'lar.

¹² O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, 3-modda.



2.1-rasm. Budget tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalari¹³

Budget tashkilotining rivojlantirish jamg'armasiga budget tashkilotlarining tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlari tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar va ularni ishlab chiqarish bo'yicha xarajatlar o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Shuningdek, davlat tibbiyot muassasalarida ham budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi shakllantiriladi. Ushbu jamg'arma mablag'larini shakllantirish manbalari hamda ishlatish yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 21 dekabrda "Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi 276-sonli qaroriga muvofiq belgilab berilgan. Budget Kodeksining 61- va 81-moddalarida

¹³ O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 11-bob, 60-moddasi asosida tayyorlandi.

ham Tibbiyot muassasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasining shakllanish manbalari va ishlatish yo‘nalishlari aniqlashtirilgan (2.1-jadval).

2.1-jadval

Tibbiyot muassasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasini shakllantirish va uning mablag‘larini sarflash¹⁴

Tibbiyot muassasalari guruhlari	Jamg‘armaning shakllanish Manbalari	Jamg‘arma mablag‘larini sarflash yo‘nalishlari	
		moddiy rag‘batlantirish	moddiy-texnika bazani mustahkamlash
I guruh	– tibbiyot tashkilotiga ajratiladigan byudjet mablag‘lari umumiy hajmining 5 foizigacha bo‘lgan miqdorda byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar;	25 %	75 %
II guruh	– faoliyat ixtisosligi bo‘yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;	35 %	65 %
III guruh	– hisobot choragining so‘nggi ish kuni oxirida xarajatlar smetasi bo‘yicha tejalgan mablag‘lar;	40 %	60 %
IV guruh	– tibbiyot tashkiloti balansida turgan mol-mulkni ijaraga berishdan olingan mablag‘larning bir qismi;	50 %	50 %
	– belgilangan tartibda byudjet tashkilotlari tasarrufida qoldiriladigan mablag‘lar;		
	– homiylikdan olingan mablag‘lar		

Tibbiyot muassasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:

- tibbiyot tashkilotiga ajratiladigan budjet mablag‘lari umumiy hajmining 5 foizigacha bo‘lgan miqdorda budjetdan ajratiladigan mablag‘lar;
- faoliyat ixtisosligi bo‘yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 21 dekabrda “Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to‘lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 276-sonli qarori ilovasiga ko‘ra

2.2-jadval

Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va sarflash yo‘nalishlari (qishloq vrachlik punktlari uchun)¹⁵

Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasini shakllantirish manbalari (qishloq vrachlik punktlari uchun):				Moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larini sarflash yo‘nalishlari:	
				moddiy rag‘batlantirishga	moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga, muassasani modernizatsiyalash va ta‘mirlashga, kreditorlik qarzlarni to‘lashga
QVP uchun byudjet mablag‘lari umumiy hajmining 5 foizigacha	homiylilik va donorlik tashkilotlaridan, pulli davolash va xizmatlardan, intizomiy jazoni qo‘llashdan tushadigan, jarimalar mablag‘lari	hisobot choragining oxirgi ish kuni tugashida paydo bo‘lgan byudjet mablag‘laridan tejamlar (kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish uchun nazarda tutilgan mablag‘lardan tashqari)	vaqtinchalik foydalanilmayotgan xonalarni va boshqa davlat mulkini o‘zga tashkilotlarga ijaraga berishdan olingan mablag‘lar	ko‘pi bilan 75%	kamida 25%

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 21 dekabrdaqi “Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to‘lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 276-sonli qarori ilovasiga ko‘ra

- hisobot choragining so‘ngi ish kuni oxirida xarajatlarni smetasi bo‘yicha tejalgan mablag‘lar, bundan kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish uchun nazarda tutilgan mablag‘lar mustasno;

- tibbiyot tashkiloti balansida turgan mol-mulkni ijaraga berishdan olingan mablag‘larning bir qismi;

- belgilangan tartibda budjet tashkilotlari tasarrufida qoldiriladigan mablag‘lar;

- homiylikdan olingan mablag‘lar.

O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi bilan shuningdek vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning budjetdan tashqari jamg‘armalari daromadlarini shakllantirish manbalari belgilab qo‘yilgan bo‘lib, ular belgilangan tartibda davlat bojlari, yig‘imlar va soliq bo‘lmagan to‘lovlar, ma‘muriy jarimalar hamda moliyaviy sanksiyalardan ajratmalar hisobidan shakllantiriladi. Jamg‘arma mablag‘laridan moddiy-texnika bazani mustahkamlash, xodimlarni moddiy rag‘batlantirish, boshqa xarajatlarni qoplash uchun foydalaniladi.

Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning budjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan alohida tartibda belgilanadi.

Bundan tashqari, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari rasman o‘rnatilgan undiriladigan to‘lovlar hisobidan ham shakllanadi. Ularning tarkibi Budjet Kodeksining 63-moddasi bilan belgilab qo‘yilgan. Unga ko‘ra, budjet tashkilotlari tomonidan budjetdan tashqari mablag‘lar quyidagilar hisobidan shakllantiriladi:

- o‘quvchilar va tarbiyalanuvchilar davlat maktabgacha ta’lim muassasalarida, umumta’lim maktablarining kuni uzaytirilgan guruhlarida, maktab-internatlarda, olimpiya zaxiralari kollejlari va boshqa ta’lim muassasalarida saqlab turilganligi uchun;

- o‘quvchilar bolalar musiqa va san’at maktablari hamda maktabdan tashqari ta’lim muassasalarida ta’lim olganligi uchun;

- oliy va oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlimi muassasalarida taʼlim olganlik uchun;
- statsionar davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotganlar tarkibi ovqatlanishi uchun;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa turdagi undiriladigan toʻlovlar.

Undiriladigan toʻlovlarning miqdorlari, ularni kiritish va ulardan foydalanish tartibi, shuningdek undiriladigan toʻlovlar boʻyicha imtiyozlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 12 avgustdagi 227-son “Budjet tashkilotlari tomonidan tadbirkorlik subʼektlarining xayriya ehsonlari shaklidagi mablagʻlaridan foydalanishning oshkoraligi va samaradorligini taʼminlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qaroriga muvofiq tadbirkorlik subʼektlarining budjet tashkilotlariga xayriya ehsonlari shaklida tushadigan pul mablagʻlari budjet tashkilotlarining Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligining axborot tizimida ochilgan tegishli budjetdan tashqari gʻaznachilik hisob raqamlarida belgilangan tartibda jamlanadi va foydalaniladi. Tadbirkorlik subʼektlarining xayriya ehsonlari shaklidagi mablagʻlari budjet tashkilotlari tomonidan olinishi va ulardan foydalanish budjet tashkilotlari bilan tadbirkorlik subʼektlari oʻrtasida xayriya yordami koʻrsatish toʻgʻrisida tuzilgan shartnomalarga (bitimlarga) muvofiq amalga oshiriladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 8 apreldagi “Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi 102-son qaroriga asosan Oʻzbekiston Respublikasi Davlat mulki qoʻmitasining Qoraqalpogʻiston Respublikasi Davlat mulki qoʻmitasi, Oʻzbekiston Respublikasi Davlat mulki qoʻmitasining viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy boshqarmalari huzurida davlat unitar korxonalari shaklida davlat mulkini ijaraga berish markazlari tashkil etilgan.

Ijaraga berilishi qonun hujjatlariga zid boʻlmagan korxonalar, binolar, inshootlar yoki ularning qismlari, asbob-uskunalar, transport vositalari shaklidagi davlat mulki va boshqa mol-mulk ijaraga berilishi mumkin.

Davlat mulki ularga nisbatan ijaraga beruvchida:

- ilgari tuzilgan davlat mulki ijarasi shartnomalari bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi;

- ularning muomalaga layoqatsizligi yoki muomala layoqati cheklanganligi (jismoniy shaxslarga nisbatan) to'g'risida ishonchli ma'lumot mavjud bo'lgan shaxslarga ijaraga berilmaydi.

Agar ijaraga berish natijasida balansda saqlovchining ishlab chiqarish va moliyaviy ko'rsatkichlari yomonlashsa yoki budjetdan moliyalashtirishning nazarda tutilgan limitlaridan ortiq bo'lsa, davlat mulki ijaraga berilishi mumkin emas. Ko'rsatib o'tilgan holatlar yuqori turuvchi tashkilot yoki muassis (mavjud bo'lganda) bilan kelishgan holda balansda saqlovchi tomonidan hujjatlar bilan asoslanishi kerak. Ijaraga berilgan davlat mulki (uning bir qismi), shuningdek davlat mulkini (uning bir qismini) ijaraga olish bo'yicha ijaraga oluvchining huquqi o'zgaga berilishi, garovga qo'yilishi yoki boshqacha tarzda ijaraga oluvchi tomonidan uchinchi shaxslarga o'tkazilishi mumkin emas. Ijaraga oluvchi ijaraga olingan davlat mulkini uchinchi shaxslarga, shu jumladan sub ijara shartlarida berishga haqli emas. Ijaraga oluvchi mol-mulkni soz holatda saqlashi, o'z hisobidan joriy ta'mirlashi va mulkni saqlash bo'yicha xarajatlarni qoplashi shart. Davlat mulki ijarasining eng ko'p muddati besh yilni tashkil etadi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

Binolar va inshootlar bo'yicha ijara to'lovini (ijara to'lovining tayanch stavkasi) hisoblab chiqish quyidagi tarzda aniqlanadi¹⁶:

$$Ts=Es*Kz*(Kq+Kh+Ko) \quad (1)$$

bunda:

Ts — bir yilga bir kv. metr uchun ijara to'lovining tayanch stavkasi;

Es — bir yilga bir kv. metr uchun eng kam stavka;

Kz — hududiy zonalar koeffitsienti;

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 8 apreldagi "Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 102-son qarori

Kq — qurilish turi bo'yicha koeffitsient (alohida turgan bino, qo'shimcha qurilgan bino, binoning yuqori qismi, cherdak, boloxona, yarim yerto'la, yerto'la);

Kh — tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsienti;

Ko — tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsienti (asosiy avtotransport yo'llari bo'ylab joylashish, ikkinchi darajali avtotransport yo'llariga chiqishda joylashish va boshqalar).

Binolar va inshootlar bo'yicha ijara to'lovi stavkasi O'zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo'mitasi taqdim etgan hamda Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligi bilan kelishilgan ijaraning eng kam stavkalari hisob-kitobi asosida tegishli Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan tasdiqlangan eng kam stavkalardan kam bo'lishi mumkin emas.

Binolar va inshootlar bo'yicha ijara to'lovining eng kam stavkalari hisob-kitoblari O'zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo'mitasi tomonidan har yili 1 noyabrgacha tayyorlanadi hamda kelishish uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligiga taqdim etiladi, ular o'n ish kuni mobaynida ularni kelishadilar yoki qayta ishlash va keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligining mulohazalari va takliflari olingan sanadan boshlab o'n ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda kelishishga kiritish uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo'mitasiga qaytaradilar.

Joriy yilning 15 dekabridan kechikmay binolar va inshootlar bo'yicha ijara to'lovi eng kam stavkalarining kelishilgan hisob-kitoblari O'zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo'mitasi tomonidan tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga tasdiqlash uchun yuboriladi.

Mol-mulkning boshqa turlari uchun ijara to'lovi stavkasi:

- agar ijaraga topshirilayotgan mulkdan amalda foydalanilgan muddat undan samarali foydalanish muddatidan ortiq bo'lmasa yoki ushbu muddatga teng bo'lsa, yoki amalda foydalanilgan muddatni aniqlash mumkin bo'lmasa — mol-mulk tiklanish qiymatining 30 foizidan;

- agar ijaraga topshirilayotgan mol-mulkdan amalda foydalanilgan muddat undan samarali foydalanish muddatidan ortiq bo'lsa — mol-mulk tiklanish qiymatining 20 foizidan kam bo'lishi mumkin emas.

Samarali foydalanish muddati O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 144-moddasida ko'rsatilgan tasniflashdan kelib chiqib belgilanadi. Balansida saqlovchining rahbari va bosh buxgalteri ijaraga berilayotgan mol-mulkning tiklangan qiymati to'g'risida taqdim etilgan axborotning ishonchliligi uchun javob beradilar.

Ijara shartnomasini tuzishda isitish, sovutish, elektr energiyasi bilan ta'minlash, sovuq va issiq suv ta'minoti, yong'in xavfsizligi va qo'riqlash (hisoblagich, dizel generatori, sovutish mashinasi (chiller, fankoyl va boshqalar), tortish ventilyatorlari, nasoslar, transformator va taqsimlash kichik stantsiyalari, yong'in xavfsizligi va qo'riqlash tizimlari, ko'tarish mexanizmlari (shu jumladan liftlar va boshqalar) zinapoya panjaralari, zinapoyalar, lift shaxtalari va boshqa shaxtalar, shuningdek balansida saqlovchi va ijaraga oluvchilarning xodimlari va o'quvchilari, oshxonalar va bufetlarda ovqatlanishi uchun foydalanadigan maydonchalar bo'yicha muhandislik tarmoqlari va kommunikatsiyalar, mexanik, elektr, sanitariya-texnik asbob-uskunalar va boshqa asbob-uskunalar va qurilmalar bo'yicha ijara to'lovi belgilanmaydi.

Davlat mulkining ko'rsatib o'tilgan turlari bo'yicha shartnomada kommunal va foydalanish to'lovlari, shu jumladan amortizatsiya ajratmalari (mavjud bo'lganda) nazarda tutiladi. Turli sport, madaniy, o'quv, tibbiyot tadbirlari va boshqa ijtimoiy tadbirlar (to'garaklar)ni tashkil etish, shuningdek darsdan tashqari (ishdan tashqari) vaqtda balansida saqlovchi va ijaraga oluvchilarning xodimlari ovqatlanishi va davolanishini tashkil etish maqsadida ijaraning ayrim ob'ektlari (oshxonalar va bufetlar, zallar (xonalar), sport inshootlari 270 ish kuni va 8 soatlik ish kuni hisobidan kelib chiqib ijara to'lovining soatbay stavkasi to'langan holda ijaraga berilishi mumkin.

Ijaraga beruvchi davlat mulkini ijaraga berish maqsadida:

- ijaraga berilayotgan davlat mulkini xatlovdan o'tkazadi;

- ijaraga berilayotgan davlat mulkiga yuklatilgan majburiyatlarni aniqlaydi va ular haqida ma'lumot tayyorlaydi;
- ijaraga berilayotgan davlat mulki ro'yxatini tuzadi;
- ijara shartnomasi loyihasini, davlat mulkini ijaraga berish shartlarini, ijara ob'ekti, shu jumladan undan foydalanish shartlari to'g'risidagi ma'lumotlarni va boshqa zarur axborotni tayyorlaydi;
- ijaraga berilayotgan davlat mulki ro'yxatini e'lon qiladi;
- davlat mulki ijarasiga buyurtmanomalarni qabul qiladi va ularning ro'yxatdan o'tkazilishini, maxfiyligini va saqlanishini ta'minlaydi;
- potentsial ijaraga oluvchilarning (keyingi o'rinlarda talabgorlar deb ataladi) talabi bo'yicha ularga ijaraga berilayotgan mol-mulk, uning tavsiflari bilan tanishish imkoniyatini beradi;
- ijaraga berilayotgan mol-mulkni tegishli xizmatlar bilan ta'minlash bo'yicha bitim loyihasini ishlab chiqadi hamda uni balansda saqlovchi hamda kommunal xizmatlar va foydalanish xizmatlari ko'rsatuvchilar bilan kelishadi (zaruriyat bo'lsa);
- qonun hujjatlariga va ushbu Nizomga muvofiq boshqa funktsiyalarni bajaradi.

Davlat mulki davriy nashrlarda, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo'mitasi va Savdo-sanoat palatasining veb-saytlarida foydalanilmayotgan davlat mulki ijaraga berilishi to'g'risida majburiy tarzda e'lon qilish sharti bilan (chorakda kamida bir marta) ijaraga beriladi.

Ijaraga oluvchi ijara shartnomasi muddatini uzaytirish to'g'risida yozma ravishda murojaat qilgan taqdirda shartnoma muddati, ushbu ijara ob'ekti bo'yicha majburiy tartibda e'lon berilmasdan, tegishli ravishda davlat mulkini ijaraga berishning eng ko'p muddatlaridan oshmaydigan muddatlarga belgilangan tartibda uzaytiriladi. Ushbu eng ko'p muddatlar tugagach davlat mulki ijaraga umumiy asoslarda beriladi.

Har bir ijara shartnomasi bo'yicha buyurtmanomalar ijaraga beruvchi tomonidan foydalanilmayotgan davlat mulkini ijaraga berish to'g'risida e'lon

berilgandan keyin birinchi buyurtmanoma ro'yxatdan o'tkazilgan sanadan boshlab, har bir buyurtmanomaga tartib raqami berilgan hamda buyurtmanoma berilgan sana va vaqt ko'rsatilgan holda, besh ish kuni mobaynida maxsus daftarda ro'yxatdan o'tkaziladi.

Ko'rsatib o'tilgan muddat tamom bo'lgandan keyin tushgan talabnomalarni (buyurtmanomalarni) ko'rib chiqish ikki ish kunidan oshmaydigan muddat mobaynida amalga oshiriladi.

Talabgorlar (talabgor) talabnomalarni (buyurtmanomalarni) ko'rib chiqishda qatnashishi mumkin. Buyurtmanomalarni ko'rib chiqishda qatnashmagan talabgor ko'rib chiqish natijalari to'g'risida yozma ravishda (faks, elektron pochta, pochta orqali) xabardor qilinadi.

Talabgorlarning buyurtmanomalarini ko'rib chiqish balansda saqlovchi va tegishli Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat raqobat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo'mitasining viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy boshqarmalari vakillari ishtirokida ijaraga beruvchi huzurida tashkil etiladigan Komissiya tomonidan ko'rib chiqiladi, ko'rib chiqish natijalari bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Komissiya ishi reglamenti O'zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Ikki va undan ortiq talabgorlardan takliflar tushgan taqdirda ijara shartnomasi ijaraning belgilangan shartlariga rioya qilingan holda ijaraga berilayotgan davlat mulki uchun ijara to'lovining eng ko'p miqdorini taklif etgan talabgor bilan tuziladi.

Talabgorlarning takliflari teng bo'lgan taqdirda ijara shartnomasi, agar talabgorlardan biri buyurtmanomalarni ko'rib chiqish jarayonida ijara to'lovining dastlabki taklifidan ortiq bo'lgan miqdorda ijara to'lovini taklif etmasa, boshqalardan oldin buyurtmanoma bergan talabgor bilan tuziladi. Ushbu holatda shartnoma ijara to'lovining eng yuqori miqdorini taklif etgan talabgor bilan tuziladi.

O'z majburiyatlarini zarur tarzda bajargan ijaraga oluvchi boshqa shartlar teng bo'lgan taqdirda yangi muddatga ijara shartnomasini tuzishda boshqa talabgorlar oldida ustunlik huquqiga ega bo'ladi, transport vositalari ijarasi bundan mustasno.

Faqat bir nafar talabgordan buyurtmanoma tushgan taqdirda ijara shartnomasi uning takliflari tegishli e'londa ko'rsatilgan shartlarga muvofiq bo'lgan taqdirda u bilan tuziladi yoxud unga ijara shartnomasi tuzishning sabablari asoslangan rad javobi yuboriladi.

Bunda navbatma-navbatlik tartibida:

- budget tashkilotlari;

- xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida o'z faoliyatini amalga oshiruvchi qo'shma loyihalarni amalga oshirish bo'yicha guruhlar davlat mulki ijara shartnomasini tuzishning ustunlik huquqiga ega bo'ladilar. Ular O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari shartlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlariga muvofiq davlat mulki bo'lgan binolar va xonalarda joylashtiriladi, ular uchun ijara to'lovining no'l stavkasi belgilangan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

- balansida saqlovchining yuritishida bo'lgan tashkilotlar, shuningdek balansida saqlovchining yuqori tashkiloti (muassasasi) hisoblangan vazirliklar (idoralar)ning tarkibiy bo'linmalari;

- kichik tadbirkorlik sub'ektlari;

- nodavlat notijorat tashkilotlari davlat mulki ijara shartnomasini tuzishning ustunlik huquqiga ega bo'ladilar.

Amal qilish muddati navbatdagi yilga o'tadigan ko'chmas davlat mulki ijara shartnomasi bo'yicha bo'lajak yil davri uchun ijara to'lovi belgilangan tartibda bo'lajak yilga ijara to'lovining eng kam stavkalariga muvofiq belgilanadi.

Buyurtmanomalarni ko'rib chiqish natijalari to'g'risidagi bayonnoma Komissiya tomonidan qaror qabul qilingan kunda Komissiya a'zolari tomonidan imzolanadi va uning raisi tomonidan tasdiqlanadi. Buyurtmanomalarni ko'rib

chiqish natijalari to'g'risidagi imzolangan bayonnoma asosida tegishli davlat mulkining ijara shartnomasi tuziladi.

Ijara shartnomasi ijaraga beruvchi, ijaraga oluvchi va balansda saqlovchi o'rtasida tuziladi. Ijara shartnomasini buyurtmanomalarni ko'rib chiqish bayonnomasida ko'rsatilgan muddat mobaynida, lekin ko'pi bilan besh kun muddatda barcha tomonlar imzolashi kerak.

Transport vositasini ijaraga berishda ijaraga oluvchi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda fuqarolik javobgarligini sug'urta qilishni, shuningdek transport vositasini sug'urta qilishni amalga oshiradi. Ijara shartnomasini bekor qilish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

Ijara to'lovi bo'yicha hisob-kitoblar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ijara to'lovi;
- kommunal va foydalanish to'lovlari shu jumladan amortizatsiya ajratmalari (mavjud bo'lganda).

Ijara to'lovi ijaraga oluvchi tomonidan ijara to'lovining oxirgi belgilangan miqdoridan va ijaraning qolgan muddatidan kelib chiqqan holda hisoblangan davrlar (har chorakda, har oyda va shu kabi) bo'yicha teng miqdordagi to'lovlar bilan to'lanadi. To'lov ijara shartnomasida ko'rsatilgan muddatlarda har bir navbatdagi davr (chorak, oy va shu kabilar) uchun yuz foiz oldindan to'lash shaklida amalga oshiriladi.

Ijaraga oluvchi ijaraga berilgan davlat mulkini tiklash yoki mukammal ta'mirlashni amalga oshirgan taqdirda uning qilgan xarajatlari, ijaraga oluvchi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasining tegishli xizmatlari ekspertizasi natijalari taqdim etilgan taqdirda, balansda saqlovchiga ajratiladigan ijara to'lovi summasini kamaytirish hisobiga qoplanadi.

Ijara to'lovi, shuningdek bir ish kuni mobaynida ijaraga beruvchilarning tranzit hisob raqamlariga tushgan ijara to'lovini to'lash kechiktirilganligi uchun undirilgan penya summasi va shartnoma majburiyatlari buzilganligi uchun jarima quyidagi tartibda taqsimlanishi kerak:

- ijara to'lovi mablag'larining 50 foizi — tegishli budget daromadiga, 40 foizi — davlat mulkini balansida saqlovchiga, 10 foizi — ijaraga beruvchiga yo'naltiriladi;

- ijara to'lovini to'lash kechiktirilganligi uchun undirilgan penya summasi va shartnoma majburiyatlari buzilganligi uchun jarimaning 50 foizi tegishli budget daromadiga yo'naltiriladi va qolgan 50 foizi ijaraga beruvchining tasarrufida qoladi;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy ishlab-chiqarish bosh boshqarmasining va uning mintaqalararo (mintaqaviy) davlat inspeksiyalari balansida bo'lgan madaniy meros ob'ektlarini ijara berilgan hollarda (tadbirkorlik faoliyati sub'ektlariga investitsiya majburiyatlari bilan ijaraga berish hollaridan tashqari), ijaraga beruvchilarning tranzit hisob raqamiga tushadigan ijara to'lovini hamda ijara to'lovi kechiktirilgani uchun undirilgan penya, shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun jarima summalari bir ish kuni mobaynida quyidagi tartibda taqsimlanadi:

- mablag'larning 90 foizi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy ishlab-chiqarish bosh boshqarmasining budgetdan tashqari shaxsiy g'aznachilik hisob raqamiga o'tkaziladi;

- 10 foizi tegishli ijaraga beruvchi tasarrufida qoladi.

2.2. Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'laridan foydalanish amaliyoti


Budget tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi hamda Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari faqat:

– avvalo vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqalarni va mavjud kreditorlik qarzlarni to'lashga;

– budget tashkilotining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash tadbirlariga;

–ijtimoiy rivojlantirish va budget tashkilotlarining xodimlarini moddiy rag‘batlantirish tadbirlariga sarflanadi.

Budget tashkilotida vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo‘yicha to‘lanmagan nafaqalar, muddati o‘tkazib yuborilgan kreditorlik qarzi mavjud bo‘lsa, Rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari tejab qolingan budget mablag‘lari doirasida ushbu qarzlarni to‘lashga (ishlar, xizmatlar tovarlar ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha jami xarajatlar o‘rni qoplangandan so‘ng) sarflanadi.



2.2-rasm. Budget tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanish yo‘nalishlari¹⁷

Agar kreditorlik qarzi budget tashkilotining xarajatlari vaqtincha yetarli miqdorda mablag‘ bilan ta‘minlanmaganligi munosabati bilan paydo bo‘lgan

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 11-bob, 60-moddasi asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

taqdirda, kreditorlik qarzning Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi hisobiga to'langan miqdori joriy moliya yiliga belgilangan xarajatlar limiti doirasida budjetdan qoplanadi.

Agar kreditorlik qarzi budjet tashkilotlarining xarajatlar smetasiga ilovada nazarda tutilgan tegishli xarajatlar to'lanmaganligi va (yoki) xarajatlarning har qaysi guruhi bo'yicha belgilangan limitlarning oshib ketganligi munosabati bilan paydo bo'lgan bo'lsa, to'liq hajmda budjetdan mablag' bilan ta'minlangan taqdirda, Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari (ishlar, xizmatlar, tovarlar ishlab chiqarish va sotish bo'yicha jami xarajatlar o'rnini to'ldirilgandan so'ng) avvalo xarajatlarning to'lanmagan qismi va belgilangan limitlarning ortib ketgan miqdori doirasida kreditorlik qarzlarni uzishga yo'naltiriladi.


Budjet tashkilotida vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha to'lanmagan nafaqalar va kreditorlik qarz mavjud bo'lmasa yoxud ushbu qarzlarni belgilangan doirada va shartlarda to'langan taqdirda Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasining qolgan mablag'lari (homiylar yordami, beg'araz yordam miqdori bundan mustasno):

- tushgan barcha mablag'larning kamida 75 foizi tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish bo'yicha jami xarajatlarning o'rnini to'ldirishga va moddiy-texnika bazani mustahkamlashga;

- tushgan barcha mablag'larning ko'pi bilan 25 foizi budjet tashkilotlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish va moddiy rag'batlantirish tadbirlariga sarflanadi.

Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari quyidagi yo'nalishlarda sarflanadi:

- xodimlarni moddiy rag'batlantirishga;
- moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, muassasani modernizatsiya qilish va ta'mirlash, shuningdek kreditorlik qarzlarni to'lashga.



2.3-rasm. Budjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'laridan foydalanish yo'nalishlari¹⁸

Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan budjet tashkilotiga ko'rsatilgan homiylik (beg'araz) yordamidan olingan mablag'larning barcha summasi, agar homiy bilan maxsus o'zgacha hol kelishilmagan bo'lsa, to'lig'icha moddiy-texnika bazani mustahkamlashga sarflanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, budjet tashkilotlarini budjetdan tashqari mablag' topishga undash va yaxshi ish natijalarini rag'batlantirish barcha budjet tashkilotlari 2018 yil 1 yanvargacha barcha daromadlari (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabr 414-son Qarori bilan belgilangan) yuzasidan barcha soliqlar va yig'imlardan, shuningdek, davlat maqsadli fondlariga majburiy to'lovlarni to'lashdan ozod etiladi.

Budjetdan tashqari jamg'armalarga ega bo'lgan budjet tashkilotlari budjetdan tashqari jamg'armalar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasini har yili tuzadi va tasdiqlaydi. Bunda, budjetdan tashqari mablag'lar tushumlari va xarajatlarini rejalashtirish budjet tashkilotlari tomonidan qonun hujjatlariga

¹⁸ "Budjet tashkilotlarini moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabr 414-son Qarori

muvofiq belgilangan daromadlar manbai va xarajatlar yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Budjet tashkilotlari quyidagi budjetdan tashqari jamg‘armalar bo‘yicha smetalar tuzadilar:

- Budjet tashkilotining rivojlantirish jamg‘armasi;
- Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi;
- vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning budjetdan tashqari jamg‘armalari;

- budjet tashkilotlariga undiriladigan to‘lovlar hisobidan shakllantiriladigan budjetdan tashqari mablag‘lar, shu jumladan, o‘quvchilar va tarbiyalanuvchilar davlat maktabgacha ta’lim muassasalarida, umumta’lim maktablarining kuni uzaytirilgan guruhlarida, maktab-internatlarda, olimpiya zaxiralari kollejlari va boshqa ta’lim muassasalarida saqlab turilganligi uchun, o‘quvchilar bolalar musiqa va san’at maktablari hamda maktabdan tashqari ta’lim muassasalarida ta’lim olganligi uchun, oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida ta’lim olganlik uchun, statsionar davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotganlar tarkibi ovqatlanishi uchun hamda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa turdagi to‘lovlar.

Davlat maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarni saqlab turilganligi uchun undiriladigan to‘lovlar hisobidan shakllantiriladigan, shuningdek tibbiyot muassasalarida statsionar davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotganlar tarkibi ovqatlanishi uchun undiriladigan to‘lovlar hisobidan shakllantiriladigan budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha daromadlar va xarajatlar smetasi tuzilmaydi. Bu mablag‘lar mazkur muassasalarning xarajatlar smetasida hisobga olinadi. Budjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari bo‘yicha daromadlar va xarajatlar smetalarini tuzish hamda tasdiqlash budjet tashkilotlarining xarajatlar smetalari uchun belgilangan tartibga o‘xshash tartibda amalga oshiriladi. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari bo‘yicha daromadlar va xarajatlar smetasida tushumlar manbaini ko‘rsatgan holda

budjetdan tashqari mablagʻlar tushumlarining hajmi va mazkur mablagʻlardan foydalanish yoʻnalishlari qonun hujjatlari talablaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamgʻarmalari boʻyicha daromadlar va xarajatlar smetasining daromad qismi moliya yili boshidagi mablagʻlar qoldigʻi hamda daromadlarning manbalar kesimidagi prognozidan tashkil topadi. Qonun hujjatlariga muvofiq budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamgʻarmalari hisobidan xodimlar soni saqlab turilgan taqdirda, budjetdan tashqari jamgʻarmalar boʻyicha daromadlar va xarajatlar smetasida koʻrsatilgan xodimlar soni boʻyicha shtat jadvali ilova qilinadi. Bunda, mazkur shtat jadvali budjet tashkilotining shtat jadvaliga oʻxshash holda tuziladi hamda tegishli budjet mablagʻlarini taqsimlovchi tomonidan yoki moliya organida belgilangan muddatlarda va tartibda roʻyxatdan oʻtkazilishi kerak. Budjetdan tashqari jamgʻarmalar boʻyicha daromadlar va xarajatlar smetalari tegishli budjet mablagʻlarini taqsimlovchilar tomonidan yoki moliya organlarida xarajatlar smetasi uchun belgilangan muddatlarda va tartibda roʻyxatdan oʻtkazilishi kerak. Budjet tashkilotlarini rivojlantirish jamgʻarmasi va Tibbiyot muassasalarini moddiy ragʻbatlantirish va rivojlantirish jamgʻarmasi bundan mustasno.

Tadbirkorlik subʼektlarining xayriya ehsonlari shaklida budjet tashkilotlariga tushadigan pul mablagʻlari, agar shartnomalarda oʻzgacha hol qayd etilmagan boʻlsa, budjet tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yoʻnaltiriladi. Bunda tadbirkorlik subʼektlari tomonidan xayriya ehsoni shaklida budjet tashkilotlariga beriladigan mol-mulkdan shartnomaga muvofiq belgilangan maqsadda foydalaniladi. Xayriya ehsonlari shaklidagi pul mablagʻlari tegishli budjet tashkilotlarining rahbarlari tomonidan tasdiqlanadigan daromadlar va xarajatlar smetalariga muvofiq sarflanadi. Shartnomalarda koʻrsatilgan maqsadlar uchun toʻliq foydalanish natijasida joriy moliyaviy yil mobaynida yoki uning oxirida budjet tashkilotining budjetdan tashqari gʻaznachilik hisob raqamida qolgan tejalgan xayriya ehsonlari shaklidagi pul mablagʻlaridan faqat tegishli budjet tashkilotining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun foydalaniladi. Xayriya ehsonlari shaklida tushgan tegishli budjet tashkilotlarining

budjetdan tashqari g'aznachilik hisob raqamlaridagi yil mobaynida foydalanilmagan pul mablag'lari qoldiqlari keyingi moliyaviy yilga o'tadi va olib qo'yilmaydi. Tegishli budjetdan tashqari g'aznachilik hisob raqamlaridagi xayriya ehsonlari shaklidagi pul mablag'laridan foydalanish, shu jumladan tovarlar sotib olish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish) uchun foydalanish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Budjet tashkilotlarining davlat budjetining g'azna ijrosi bilan qamrab olingan budjetdan tashqari mablag'lari quyidagilardan iborat:

- Budjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi;
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijtimoiy nafaqalarni to'lash uchun mablag'lari;
- Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi;
- o'tgan yillar debitorlik qarzlarining tushgan summasi;
- maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar ta'minoti uchun ota-onalardan tushumlar;
- maktabdan tashqari muassasalarda (musiq va san'at maktablari) bolalar ta'minoti uchun ota-onalardan tushumlar;
- xodimlardan, ular ishlayotgan joyida ovqatlanganligi bo'yicha hisob-kitoblardan tushadigan tushumlar;
- maktab-internatlar va litseylarda bolalarning ta'minoti uchun ota-onalardan tushumlar;
- ta'lim muassasalarida o'qishdan tushadigan mablag'lar;
- vazirlik va idoralarning ajratmalar hisobiga shakllanadigan budjetdan tashqari jamg'armalari;
- umumta'lim muassasalarida darsliklar ijarasi to'lovidan tushgan budjetdan tashqari mablag'lar;
- kapital qo'yilma mablag'lari bo'yicha depozitlar;

- turg‘un davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotgan bemorlardan ovqatlanish uchun undiriladigan to‘lovlar;
- taqsimlanishi nazarda tutilgan tushumlar;
- boshqa ta‘lim muassasalarida bolalar ta‘minoti uchun ota-onalar to‘lovi;
- boshqa mablag‘lar bo‘yicha depozitlar;
- budjet tashkilotlarining boshqa budjetdan tashqari mablag‘lari.

Budjet tashkilotlarining xarajatlarini moliyalashtirish (to‘lash) quyidagi harajatlar negizida amalga oshiriladi:

I. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar (bolali oilalarga nafaqalar va kam ta‘minlangan oilalarga moddiy yordam, stipendiyalar va boshqalar);

II. Ish haqiga qo‘shimchalar;

III. Kapital qo‘yilmalar (Davlat investitsiya dasturida nazarda tutilgan aniq ro‘yxatlarga muvofiq);

IV. Boshqa xarajatlar.

O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2016 yil 22 noyabrda 88-son “O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimi budjetlarining g‘azna ijrosi qoidalarini tasdiqlash haqida” buyrug‘i (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2016 yil 22 dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2850) ga asosan G‘aznachilik bo‘linmalarida ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan yuridik majburiyatlar, shuningdek ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar ular g‘aznachilik bo‘linmalarida ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng kuchga kiradi. Bunda yuridik majburiyatlar yuzaga kelganligini tasdiqlovchi hujjatlar g‘aznachilik bo‘linmalarida ro‘yxatdan o‘tkazish uchun joriy moliya yilining 25 dekabridan kechiktirmay taqdim qilinadi. Buyurtmachilarning I va II guruh bo‘yicha xarajatlar to‘lovi birinchi navbatda amalga oshiriladi. Bunda I guruh xarajatlarini II guruh xarajatlari to‘lovisiz amalga oshirish taqiqlanadi (ish haqi uchun olingan avanslardan tashqari). Tegishli budjetda I va II guruh xarajatlari to‘lovi uchun zarur mablag‘larni qoplaydigan qoldiqlar mavjud bo‘lganda, I va II guruh

2.3-jadval

Toshkent moliya institutining 2016 moliya yili uchun daromadlari va xarajatlari balansi rejasi (ming so'm)¹⁹

Daromadlar nomi yoki tushumlar turi	2016 yil uchun tushumlar
2016 yil 1 yanvar holatiga qoldiq	15 600 296,6
Jami daromadlar:	23 940 488,0
shu jumladan:	
01.03.2016 yil holatiga o'tuvchi qarz (2015/2016 o'quv yili uchun)	11 394 107,0
01.10.2016 yil holatiga tushum (2016/2017 o'quv yili uchun 50% miqdorida)	12 546 381,0
Qoldiqni hisobga olgan holda jami daromadlar	39 540 784,6

Moddalar nomi	toifa	modda va kichik modda	element	2014 yil haqiqiy xarajatlar	2016 yil uchun tasdiqlangan				
					Jami	jumladan, choraklar bo'yicha			
						I chorak	II chorak	III chorak	IV chorak
I guruh xarajatlar - Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar									
I guruh xarajatlari bo'yicha jami				19 433 249,3	22 038 807,0	7 060 000,0	5 853 000,0	4 953 000,0	4 172 807,0
Ish haqi	41	10	000	8 191 314,5	10 064 381,0	2 860 000,0	2 553 000,0	2 553 000,0	2 098 381,0
Pul shaklidagi ish haqi	41	11	000	8 191 314,5	10 064 381,0	2 860 000,0	2 553 000,0	2 553 000,0	2 098 381,0

¹⁹ Toshkent moliya instituti ma'lumotlari asosida

2.3-jadval davomi

Asosiy ish haqi			100	8 191 314,5	10 064 381,0	2 860 000,0	2 553 000,0	2 553 000,0	2 098 381,0
Ish haqiga ustama va qo'shimcha to'lovlar			200	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nafaqalar	47	11	100	62 649,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqa	47	11	120	16 105,7	0,0				
Homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa	47	11	150	46 543,3	0,0				
Stipendiyalar	48	21	400	11 179 285,8	11 974 426,0	4 200 000,0	3 300 000,0	2 400 000,0	2 074 426,0
II guruh xarajatlari - Ish beruvchining ajratmalari									
II guruh xarajatlari bo'yicha jami				2 052 419,4	2 496 618,0	715 000,0	638 250,0	638 250,0	505 118,0
Yagona ijtimoiy to'lov	41	21	100	2 047 828,4	2 491 941,0	715 000,0	638 250,0	638 250,0	500 441,0
Ijtimoiy ehtiyojlarga boshqa ajratmalar/badallar			200	4 591,0	4 677,0	0,0	0,0	0,0	4 677,0
III-guruh xarajatlari «Kapital qo'yilmalar»									
III guruh xarajatlari bo'yicha jami				2 173 250,0	114 714,0	58 514,0	0,0	0,0	56 200,0
Asosiy vositalarni qurish va rekonstruktsiya qilish	43	20	000	2 141 135,1	109 070,0	52 870,0	0,0	0,0	56 200,0
Noturar joy binolari		21	100	1 123 844,8	56 200,0	0,0	0,0	0,0	56 200,0
Boshqa inshootlar		22	900	1 011 881,8	52 870,0	52 870,0	0,0	0,0	0,0
Qurilish varekonstruktsiya bilan bog'liq boshqa xarajatlar		29	000	5 408,5	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Asosiy vositalar bo'yicha boshqa xarajatlar	43	90	000	32 114,9	5 644,0	5 644,0	0,0	0,0	0,0
Buyurtmachini saqlash xarajatlari		90	100	32 114,9	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Buyurtmachini boshqa xarajatlari		90	300		5 644,0	5 644,0	0,0	0,0	0,0
IV guruh xarajatlari -Boshqa xarajatlar									
Boshqa xarajatlar jami				8 393 491,3	6 766 678,0	1 195 683,0	3 171 162,0	2 004 526,0	395 307,0
Xarajatlar hammmasi				32 052 410,0	31 416 817,0	9 029 197,0	9 662 412,0	7 595 776,0	5 129 432,0
2016 yil 1 yanvar holatiga qoldiq					8 123 967,6				

xarajatlarini to'liq amalga oshirgan tashkilotlar bo'yicha III va IV guruh xarajatlarini amalga oshirishga ruxsat etiladi.

Yuqoridagi jadvalda tahlil ob'ektimiz bo'lmish Toshkent moliya institutining 2016 moliya yili uchun rejalashtirilgan budjetdan tashqari daromadlari va xarajatlari keltirilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ya'ni Toshkent moliya institutining 2016 moliya yilidagi to'lov-shartnoma asosida kelib tushadigan daromadlari 39 540 784 600 so'mni tashkil etib, yil oxirigacha xarajatlar 32052410000 so'mni tashkil etishi rejalashtirilgan va yil oxiriga qoldiq 8123967600 so'mni tashkil etmoqda.

IV guruh bo'yicha mablag'larning sarflanishi belgilangan limitlar doirasida quyidagi navbatga rioya qilgan holda amalga oshiriladi:

- oziq-ovqat va dori-darmon;
- kommunal xizmatlar;
- yonilg'i va yoqilg'i-moylash materiallari;
- boshqa xarajatlar.

Bunda IV guruh hisobidan amalga oshiriladigan quyidagi xarajatlar I guruh to'lovlarga tenglashtiriladi va I guruh xarajatlari belgilangan muddatlarda to'lanishi mumkin:

- pul shaklidagi ijtimoiy yordam nafaqalari;
- yetim bolalarga va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga nafaqalar;
- natura shaklidagi ijtimoiy yordam nafaqalari;
- yolg'iz qariyalar uchun oziq-ovqat sotib olish xarajatlari.

Davlat xaridlarini amalga oshirilishi va ularning yakunlari to'g'risidagi e'lonlar buyurtmachilar tomonidan maxsus axborot portalida (O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasining maxsus veb-saytida) joylashtirilishi kerak. Bunda davlat xaridlarini amalga oshirilishi to'g'risidagi e'lonlar maxsus axborot portalida ushbu xaridlar amalga oshirilishidan kamida o'n kun oldin va joriy moliya yilining 10 dekabridan kechikmagan muddatda joylashtirilishi lozim.

2.3. Budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'larning nazorati

Budjet nazorati–moliyaviy-iqtisodiy nazoratning tarkibi qismi hisoblanadi. Uning yordamida davlatning budjet siyosati amalga oshiriladi va pul mablag'laridan samarali foydalanish hamda tashkil topish jarayoni ta'minlanadi. Budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'larning nazoratini o'tkazishda ushbu mablag'larning shakllantirilishi manbalari va ularning sarflanishi o'rganiladi.

To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblardan tushgan mablag'larning nazorati. To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblardan tushgan mablag'lar tarkibiga ta'lim muassasalaridagi bolalarning ota-onalari tomonidan to'lanadigan badallari, shuningdek, ovqatlanganligi uchun xodimlardan tushgan mablag'alar kiradi.

Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shakli va tushgan mablag'larning nazorati. Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shakli va tushgan mablag'larni taqsimlash tartibi "Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar" subschyotini tekshirish orqali amalga oshiriladi. Bundan, mablag'larning sarflanishi belgilangan nizomga ko'ra amalga oshirilganligi aniqlanadi.

Budjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larining nazorati. Nazoratni o'tkazish jarayonida rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirilishi manbalari o'rganiladi. Bu manbalar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- g'azna ijrosiga o'tgan budjet tashkilotlari bo'yicha - budjet tashkilotlarining Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalarida ochilgan hisob raqamlarida hisobot choragining oxirgi ish kuni oxirida qolgan tejab qolingan mablag'lar (kapital qo'yilmalar xarajatlariga haq to'lash uchun nazarda tutilgan mablag'lar bundan mustasno);

- budjet tashkilotlari faoliyati turiga muvofiq tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan olingan daromadlar;

- vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mol-mulkini boshqa tashkilotlarga ijaraga berishdan olingan mablag'larning 50 foizi, qolgan 50 foiz mablag' tegishli budjetlar daromadiga o'tkaziladi;

- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan budjet tashkilotlariga berilayotgan homiylik yordami (beg'araz yordam) hisobiga shakllantiriladi.

Ushbu manbalardan qo'shimcha daromad olayotgan budjet tashkilotlari Davlat budjetiga undiriladigan soliqlar va yig'imlarning barcha turlaridan ozod qilinganligini inobatga olib, bo'shab qolgan mablag'larni belgilangan tartibda, ya'ni moddiy-texnika va ijtimoiy bazani mustahkamlashga, shuningdek ularning xodimlarini moddiy rag'batlantirishga maqsadli yo'naltirilishi tekshirilishi lozim.

Jamg'arma mablag'larini sariflanishini nazoratdan o'tkazishda ularni belgilangan tadbirlarga maqsadli ishlatilishi tekshiriladi. Bu jamg'arma:

- avvalo vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqalarni va mavjud kreditorlik qarzlarni to'lashga;

- budjet tashkilotining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash tadbirlariga 75 foiz (tibbiyot muassasalarida 50 foiz);

- ijtimoiy rivojlantirish va xodimlarni moddiy rag'batlantirish tadbirlariga 25 foiz (tibbiyot muassasalarida 50 foiz) sarflanishi kerak.

Budjetdan tashqari mablag'lar hisobi nazoratining asosiy vazifalari tekshirish dasturida aks etiriladi, ular quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

- budjetdan tashqari mablag'laridan, shu jumladan, Budjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'laridan noo'rin foydalanilishi ustidan nazorat;

- budjetdan ajratiladigan mablag'larning xarajatlar guruhlari va moddalari bo'yicha tasdiqlangan limitlarga rioya etilishini tekshirish;

- shtat-smeta intizomi buzilishini tekshirish;

- xarajatlarni mablag' bilan ta'minlashning belgilangan navbatiga, ularni to'lash muddatlari va to'liqligiga rioya qilmaslik hollarining tekshirish.

Budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha xarajatlar hisobi xuddi budjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar guruhlari va ularni moliyalashtirish ketma-ketligi

kabi amalga oshirilganligi sababli tekshirish ham xarajatlar guruhi va moddalari bo'yicha olib boriladi.

Tekshiruv jarayonida budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha xarajatlarni hisoblanishi va to'lanishini amalga oshirishi 294-son shakl "Kassa va xaqiqiy xarajtlar" nomli daftarda hisobini yuritilishiga e'tibor qaratiladi. Ushbu daftarda hisobga olingan kassa va xaqiqiy xarajatlar moddalari bo'yicha ko'rsatkichlar buxgalteriya schyotlari ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi, ya'ni sintetik va analitik hisobning mosligi aniqlanadi.

Budjet tashkilotlari yuqorida keltirilgan manbalar bo'yicha hisobvaraqlardagi budjetdan tashqari mablag'lar hisobini yuritadi. Tekshiruv jarayonida har bir manba bo'yicha alohida ochilgan shaxsiy hisobvaraqlar tekshiruvdan o'tkaziladi.

Tekshirish jarayonida budjet tashkilotlariga g'aznachilik bo'linmalari tomonidan budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha shaxsiy hisobvaraqda muomala amalga oshirilganligini tasdiqlovchi ko'chirmalar solishtirish yo'li bilan olib boriladi. Bunda, avvalgi ko'chirmaning oxiridagi qoldiq keyingi ko'chirmadagi boshlang'ich qoldiqqa mos kelishi kerak. Bu ko'chirmalar asosida uchinchi memorial orderda budjetdan tashqari mablag'larning harakatiga doir jamlanma qaydnoma 381-sonli shakl rasmiylashtiriladi va bu yozuvlar 308-son shakldagi bosh jurnal kitobiga tushiriladi. Bosh jurnal kitobdan tegishli hisobot shakllari rasmiylashtiriladi. Aynan shu, birlamchi xujjatlar, registrlar va hisobot shakllari ko'rsatkichlarini solishtirish yo'li bilan tekshiruvdan o'tkaziladi.

Boshqa budjetdan tashqari mablag'larning nazorati. Boshqa budjetdan tashqari mablag'lar qatoriga tashkilotlarning eskirgan va keraksiz moddiy qiymatliklarni sotishdan, shuningdek, turli xil jamg'armalar va peniyalardan hamda boshqa qonunchilikda taqiqlanmagan tushumlar bo'yicha mablag'lar kiradi. Bunda, eskirgan va keraksiz moddiy qiymatliklarni aniqlashga qay tarzda yondashilganligi aniqlanadi. Maxsus tashkil qilingan komissiyalarning ish sifati, tuzilgan dalolatnomalarning asoslanganligi, maxsus tashkilotlarning xulosalarining mavjudligi alohida o'rganiladi.

Tadqiqot ob'ekti Shayxontoxur tumani moliya bo'limi bo'lganligi uchun ushbu tuman tibbiyot muassasalarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari tushumi va sarflanishini o'rganib chiqdik. Shundan kelib chiqib ushbu tumandagi tibbiyot muassasalarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari nazorati qanday amalga oshirilishiga to'xtalamiz.

Tibbiyot muassasalarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari nazoratini amalga oshirish borasida Qoidalarining "Jamg'arma mablag'lari sarflanishi uchun javobgarlik va nazorat qilish tartibi" nomli VI-bo'limida shunday keltiriladi, "Sog'liqni saqlash yuqori turuvchi boshqaruv organlarining rahbarlari, maxsus komissiya a'zolari, shuningdek, tibbiyot muassasasi rahbarlari Jamg'arma mablag'larini shakllantirish va sarflash tartibiga rioya qilinishi, xolisligi va haqqoniyligi uchun javobgardirlar. Moliya vazirligining Bosh nazorat-taftish boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalari Jamg'arma mablag'laridan maqsadli foydalanilishini qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda tekshiradilar"²⁰.

Tibbiyot muassasalarida moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari yuzasidan nazoratni tashkil qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 15 noyabrdagi 393-son qarorida taftish va tekshirishni asosiy vazifalari aniqlangan. Budget tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini kelib tushishi va sarflanishi, rivojlantirish jamg'armasi mablag'laridan foydalanish, rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari daromadlarini taftish hamda tekshirish rejali tartibda hamda rejadan tashqari tartibda amalga oshiriladi.

Budget tashkilotlarida rejali taftish va tekshirishlar nazorat taftish bosh boshqarmasi uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri, nazorat taftish boshqarmasi uchun esa nazorat taftish bosh boshqarmasi boshlig'i tasdiqlagan yillik ishlar rejasi asosida amalga oshiriladi.

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2006 yil 14 yanvarda qabul qilingan "Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi to'g'risida"gi № 1537 - sonli Nizomning VI-bo'lim 20, 21-bandlari.

Tibbiyot muassasalarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobi bo'yicha taftish va tekshiruvlarni o'tkazish muddati, taftish guruhi tarkibi, har bir taftish va tekshiruvni aniq vazifasidan, taftish qilinayotgan tashkilotning xususiyatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Budjet tashkilotlarida jumladan, tibbiyot muassasalarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobi bo'yicha taftish va tekshiruvlarni o'tkazish muddati – 30 kungacha qilib belgilangan. Birinchi marta belgilangan muddat taftish guruhi rahbari (taftishchi) tomonidan asoslansa, u holda muddati uzaytirilishi mumkin.


Taftishda o'tgan 3 kalendar yili moliyaviy faoliyatini, oldingi taftish o'tgandan keyingi davrni o'z ichiga oladi.

Tibbiyot muassasalari taftish qilinib hamda tekshirilayotganda rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari daromadlari va xarajatlari smetasini bajarilishi taftish qilinadi, bunda kassa va g'aznachilikda ochilgan har bir schyot bo'yicha operatsiyalar bilan bog'liq hujjatlar, o'tgan taftishdan keyingi davrdan hozirgi taftishgacha bo'lgan davr, agar suiste'molchiliklar aniqlansa, undan ko'proq davrni o'z ichiga olishi mumkin.

Tibbiyot muassasasidagi mavjud reja, hisobot, statistik ma'lumotlar hamda materiallar batafsil o'rganiladi. Taftish va tekshirishga kirishdan oldin taftish guruhi rahbari o'zining vakolati doirasida tegishli moliya va g'aznachilik organlari rahbarlariga taftish va tekshirish belgilanganligi to'g'risida axborot beradi.

Taftish guruhi rahbari taftish qilinishi kerak bo'lgan tibbiyot muassasasi rahbarini taftish va tekshiruv vazifalari bilan tanishtiradi. Shundan keyin taftish guruhi rahbari dasturda ko'zda tutilgan ayrim taftish va tekshiruv masalalarini aniqlaydi, taftish va tekshiruv o'tkazish rejasi, uning aniq ob'ektlari, savollari, ijrochilari va muddatini belgilaydi. Taftish va tekshirish o'tkazish ishtirokchilari rejaga ko'ra darhol tekshirilayotgan ob'yekt inventarizatsiyasiga kirishadilar. Bu jarayonda tekshirilayotgan tibbiyot muassasasining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobi bo'yicha tegishli birlamchi xujjatlar, buxgalteriya ma'lumotnomalari, hisob registrlari, tegishli hisobot shakllari,

umuman olganda moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha hisoblashuvlarga asos bo'luvchi tegishli barcha xujjatlar o'zaro taqqoslanib tekshiriladi.



2.4-rasm. Moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobi bo'yicha nazorat-taftish jarayonida tegishli xujjatlar hamda hisob registrларini o'zaro taqqoslashning sxematik tasvirlanishi²¹.

Tibbiyot muassasasining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha nazorat-taftish jarayonida tegishli xujjatlar hamda hisob registrларini o'zaro taqqoslashning sxematik tasvirlanishini ko'rinishimiz mumkin.

²¹ rasmda keltirilgan ma'lumotlar muallifning tadqiqot va izlanishi natijalarini umumlashtirilgan holda tayyorlangan.

Tibbiyot muassasasining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobini taftish va tekshiruvdan o'tkazishda guruh rahbari buxgalteriya va uning tarkibi, uning shtati, tashkilotning xarajatlar smetasi bo'yicha umumiy summasi bilan tanishib chiqadi. Bundan tashqari, buxgalteriya xodimlari o'rtasida xizmat vazifalarini taqsimlanishi va hujjatlar aylanishi bilan tanishadi.

Shundan keyin tibbiyot muassasasining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobi bo'yicha taftish va tekshirishlar ishchi rejasi tuziladi va unda aniq muddatlar va ishning taqsimlanishi amalga oshiriladi.

Taftishchi muassasaning moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobini tekshirish jarayonida moddiy javobgar shaxsining ishtirok etishini ta'minlashi, bajarilgan ishlar xajmini nazorat o'lchovini amalga oshiradi, nusxa va namunalar olinadi hamda ular asosida moddiy javobgar shaxs tekshiriladi. Alohida e'tibor belgilangan tartibda jinoiy ish ochilgan ishlar bo'yicha taftish va tekshirish o'tkazishga qaratilishi lozim.

Tibbiyot muassasalarida rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari va kirim qilingan moddiy qiymatliklarning buxgalteriya hisobini yuritish belgilangan tartibga rioya qilinishi, ularga qorovullikni tashkil etilishi, muassasadagi propusk tizimi holati, muassasa hududidan moddiy qiymatliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi tekshiriladi.

Tibbiyot muassasasining buxgalteriya hisoboti va balanslarni hisobot ma'lumotlarining ishonchliligi, turli xatoliklar hamda qo'shib yozishning oldini olish, topshiriqlarni bajarish ko'rsatkichlari faktlarini buzib ko'rsatilishi holatlari batafsil tekshiriladi.

Tibbiyot muassasasining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha taftish va tekshirish natijalarini rasmiylashtirish va aniqlangan moliyaviy intizomning buzilishlari va kamchiliklarni tugatish bo'yicha qabul qilingan choralar yuzasidan moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha taftish va tekshirishda aniqlangan moliyaviy intizomning buzilishlari va kamchiliklar bo'yicha guruh rahbari, taftish

qilinayotgan muassasaning rahbari hamda bosh hisobchi imzosi bilan, zarur hollarda ilgari ishlagan davrida kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan taftish qilinayotgan tashkilotning ilgari ishlagan rahbari va bosh buxgalter imzosi bilan akt tuziladi.

Bunda nazorat-taftish organida moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobi bo‘yicha taftish akti, tekshirilgan muassasa mansabdor shaxsining tushuntirish xati, taftishda aniqlangan aybdorlar, ularni suiste‘molchilik qilganligini tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi qoldiriladi.

Tibbiyot muassasasining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobi bo‘yicha taftish va tekshirish materiallari asosida qoniqarsiz ishlarni sababi aniqlanadi va ularning moliyaviy faoliyatini yaxshilash bo‘yicha taftishchi taftish qilinayotgan muassasa xodimi bilan tadbir ishlab chiqadi.

Moliya organlari, budget tashkilotlari rahbarlari budget intizomiga rioya qilinishi uchun mehnat, ma‘muriy va jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda shaxsan javob beradilar. Bunda budget tashkilotlarining qo‘shimcha daromadlar olish bo‘yicha faoliyati budget mablag‘lari hisobiga bajarilayotgan ishlar, ko‘rsatilayotgan xizmatlar hajmi va sifatiga zarar yetkazmasligi kerak.

II bob bo‘yicha xulosa

Budget tashkilotining rivojlantirish jamg‘armasini shakllantirish quyidagi manbalar hisobidan amalga oshiriladi: hisobot choragining so‘nggi ish kuni oxirida xarajatlar smetasi bo‘yicha tejalgan mablag‘lar, bundan kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish uchun nazarda tutilgan mablag‘lar mustasno, faoliyat ixtisosligi bo‘yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar, budget tashkiloti balansida turgan mol-mulkni ijaraga berishdan olingan mablag‘larning bir qismi, belgilangan tartibda budget tashkilotlari tasarrufida qoldiriladigan mablag‘lar, homiylikdan olingan mablag‘lar.

Tibbiyot muassasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi: tibbiyot tashkilotiga ajratiladigan byudjet mablag‘lari umumiy hajmining 5 foizigacha bo‘lgan

miqdorda budjetdan ajratiladigan mablag'lar, faoliyat ixtisosligi bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar, hisobot choragining so'nggi ish kuni oxirida xarajatlar smetasi bo'yicha tejalgan mablag'lar, bundan kapital qo'yimlarni moliyalashtirish uchun nazarda tutilgan mablag'lar mustasno, tibbiyot tashkiloti balansida turgan mol-mulkni ijaraga berishdan olingan mablag'larning bir qismi, belgilangan tartibda budjet tashkilotlari tasarrufida qoldiriladigan mablag'lar, homiylikdan olingan mablag'lar.

Bundan tashqari, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari rasman o'rnatilgan undiriladigan to'lovlar hisobidan ham shakllanadi: o'quvchilar va tarbiyalanuvchilar davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumta'lim maktablarining kuni uzaytirilgan guruhlarida, maktab-internatlarda, olimpiya zaxiralari kollejlari va boshqa ta'lim muassasalarida saqlab turilganligi uchun, o'quvchilar bolalar musiqa va san'at maktablari hamda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ta'lim olganligi uchun, oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olganlik uchun, statsionar davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotganlar tarkibi ovqatlanishi uchun, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa turdagi undiriladigan to'lovlar.

Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi hamda Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari faqat: avvalo vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqalarni va mavjud kreditorlik qarzlarni to'lashga, budjet tashkilotining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash tadbirlariga, ijtimoiy rivojlantirish va budjet tashkilotlarining xodimlarini moddiy rag'batlantirish tadbirlariga sarflanadi.

III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA BUDJET TASHKILOTLARINING BUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISHNI KENGAYTIRISH YO'NALISHLARI

3.1. Budjet tashkilotlari faoliyatini yaxshilash va budjet mablag'laridan foydalanishni takomillashtirish masalalari

O'zbekiston sharoitida davlat moliyasini boshqarish tizimidagi islohotlarning eng asosiysi g'aznachilik tizimini to'liq joriy qilishdir. Davlat budjeti ijrosida foydalanilayotgan g'aznachilik tizimi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlariga mos holda davlat xarajatlarini samarali boshqarishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar yig'indisidan iborat. Bu chora-tadbirlar Davlat budjetining xarajatlari ijrosidagi davlat xaridlarini amalga oshirish mexanizmini hamda joriy va dastlabki nazorat samaradorligi bo'yicha dolzarb masalalarni qamrab oladi.

Budjet mablag'laridan maqsadli foydalanish va xarajatlarini samarali ijrosini ta'minlash ustidan nazoratni kuchaytirish uchun bosqichli nazoratni to'liq joriy qilishni taqozo etadi. Ya'ni, budjet tashkiloti kontragentdan tovarlar sotib olish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) to'g'risida ofertani (taklifni) qabul qilib olganidan so'ng, shartnomani aktseptlaydi (imzolaydi) va g'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etadi. Yuridik majburiyat vujudga kelishi uchun, shartnomaning ro'yxatdan o'tkazilishi talab qilinadi. Budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish jarayonlarida, g'aznachilik bo'linmalari tomonidan baholar nazoratini tashkil etish, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining tegishli buyruqlari asosida amalga oshiriladi. Mahsulotlar(xizmatlar, ishlar)ni xarid etish bo'yicha shartnomalar tender yoki konkurs (tanlov) savdolari orqali amalga oshiriladi va bundan ko'zlangan asosiy maqsad optimal baholardan sifatli mahsulotlarni xarid etishdan iboratdir. Baholar optimalligi va budjet mablag'laridan maqsadli foydalanishni nazorat etish, amalga oshiriladigan xaridning yuqori samarasini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Baholar monitoringi tizimidagi mavjud muammolar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- tovarlar va xizmatlar bahosi to'g'risida tizimlashgan tarzda axborot olishning yetishmasligi (ayniqsa respublika hududlari bo'yicha);
- mavjud baholar monitoringi tovarlarning assortimenti (sifati, texnik va boshqa muhim tavsiflari)ni hisobga olmaydi;
- baholar monitoringi amalga oshirishda transport xarajatlarini hisobga olishni tartibga soluvchi mexanizm yetishmaydi;
- ayrim oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi tomonidan taqdim etilgan baholar, joylarda o'rnatiladigan baholar bilan keskin farqlanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda budget jarayonida o'rta muddatli rejalashtirish mexanizmini joriy qilishga dastlabki urinishlar bo'layotganligini va budget xarajatlarining natijaviyligini ta'minlovchi nazorat qilish mexanizmining endigina shakllanayotganligini e'tirof etish lozim.

Iqtisodiyotni markazdan turib boshqarish hukm surgan mamlakatlarda boshqa qator g'arb davlatlari kabi, budgetni tayyorlashda «xarajatli budget» usulidan (zatratiy metod) foydalanib kelingan. «Xarajatlarga asoslangan budgetni tuzish» usuli resurslarni rejalashtirish va taqsimlashning shunday bir usulidirki, bunda resurslar va ularni sarflashdan erishiladigan natijaviylik juda kuchsiz bo'lib hisoblanadi, chunki xarajatlar usulida asosiy e'tibor mavjud resurslarga qaratiladi.

O'z navbatida, "natijaga qaratilgan budgetlashtirish" strategik maqsad va vazifalarni asosiy maqsad qilib o'z oldiga qo'yadi, davlat tashkilotlari faoliyatlari natijasidan ijtimoiy-iqtisodiy natijalar kutadi. Bu esa barcha resurslarni ma'lum bir dasturlar orqali sarflanishi orqali amalga oshiriladi.

O'zbekistonda natijaga yo'naltirilgan budgetlashtirish amaliyotini joriy etishning nazariy-uslubiy asoslarini yaratish va takomillashtirgan holda hayotga tadbiq etish muhimdir. Shu boisdan, birinchi galda, barcha rivojlangan mamlakatlarning tajribalaridan xulosa qilgan hoda, natijaga yo'naltirilgan

budjetlashtirishning respublikamizda joriy etishning umumiy uslubiyotiga (metodologiyasiga) e'tiborni qaratamiz.

Umumiy tarzdagi metodologiya quyidagilarni o'z ichiga qamrab olishi lozim:

1. Budjetlashtirish tartib-qoidalari to'g'risidagi qonun hujjatlari;
2. Moliya organlari (Moliya vazirligining) dasturlarini moliyalashtirish bo'yicha uslubiyotini ishlab chiqishi;
3. Maqsad, vazifalar va ularning ko'rsatkichlarini guruhlash bo'yicha ko'rsatmalarni ishlab chiqish;
4. Dasturni baholash va monitoringini yuritish.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, metodologiyalar asosida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar ko'rib chiqiladi. Albatta, har bir islohotning umumiy metodologiyasi mavjud ekan, islohotlarni belgilash va amalga oshirish bosqichlari zarur hisoblanadi. Shu boisdan, mamlakatimizda joriy etilajak budjet amaliyotini uning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib bosqichma-bosqich amalga oshirish muhimdir.

Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish amaliyotini joriy etish bosqichlari:

1. Umumiy islohotlar:
 - a) Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish amaliyotini joriy etish uchun tarkibiy tuzilmalarni ishlab chiqish;
 - b) Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish amaliyotini joriy etishning me'yoriy-huquqiy, qonunchiligini ishlab chiqish;
 - v) Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish amaliyotini joriy etishning metodikasi (uslubiyoti)ni ishlab chiqish;
 - g) hukumat faoliyatlarini moliyaviy tashkil etish.
2. Joriy islohotlar:
 - a) moliya yili doirasida davlatning natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish amaliyotidagi funktsiyalari, vazifalari va maqsadalarini aniqlash;
 - b) Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimida budjet klassifikatsiyasini ishlab chiqish;

v) Natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish amaliyotini informatsion-analitik boshqarish tizimini ishlab chiqish;

g) an‘anaviy, rejalarni boshqarish tizimidan natijaviylikni boshqarish tizimiga o‘tish.

O‘zbekistonda natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish amaliyotini joriy etishning bir qator elementlari bor bo‘lib, ularni amalga oshirish keyingi islohotlarining natijalariga bevosita ta’sir etadi. Bular NYB tizimining tarkibiy elementlari bo‘lib, ular 3 guruhga bo‘linadi.

Natijaviylikka yo‘naltirilgan budjetlashtirish tizimining asosiy elementlari bo‘lib, ular quyida keltirilgan:

1. Strategik rejalashtirish:

- maqsad va vazifalarni aniqlashtirish;
- maqsad va vazifalarni amalga oshirish ko‘rsatkichlari ro‘yxati;
- talablar qo‘yish: ob‘yektivlik, o‘lchovlilik, adekvatlik, vaqtga moslik, ko‘rsatkichlarning chegaraviyligi;
- maqsad va vazifalarni muhimligi nuqtai nazaridan tabaqalashtirish;
- ko‘zlangan maqsad va vazifalarni amalga oshirishning kompleks chora-tadbirlari.

2. Moliyaviy boshqaruv va monitoring tizimi:

- dasturlarni amalga oshirishda o‘rta muddatli budjedlashtirish;
- ko‘rsatiladigan bir birlik xizmat tannarxining hisob-kitobi;
- davlat xaridlarining umumiy tizimi;
- budjet mablag‘laridan foydalanish nazorati;
- moliyaiviy va boshqaruv hisobi tizimi;
- aktivlarni boshqarish tizimi;
- ichki audit tizimi (“samarali audit”);

3. Natijalarni boshqarish:

- ko‘rsatkichlar monitoringi;
- kamchiliklarni nazorat qilish;

- umumiy holdagi kamchiliklarning sabablarini oydinlashtirish;
- vaziyatni o'nglash maqsadida (moliyaviy va boshqaruv sohasida) tezkor (operativ) chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- muqobil dasturlarni ishlab chiqish;
- erishilgan natijalar doirasida ma'muriy, boshqaruv va moliyaviy qarorlar qabul qilish.

Budjet tizimida budjet klassifikatsiyasi muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish amaliyotida ham budjet klassifikatsiyasi o'ziga xoslik kasb etmasada qolgan budjet tizimlaridan, ammo tarkiban farqlarga ega. Aytib o'tish kerakki, budjet klassifikatsiyasi bevosita budjet tizimini tartibga solishda muhim ahamiyatga ega.

Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimining budjet klassifikatsiyasi quyidagicha tasniflanadi:

1. Iqtisodiy klassifikatsiya (ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, moliya va boshqalar);
2. Funktsional klassifikatsiya (ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, marifiy, ta'lim, mudofaa, sport va boshqalar);
3. Moliyalashtirish manbalari klassifikatsiyasi (soliqli daromadlar, soliqsiz daromadlar, tiklanmaydigan (qaytarilmaydigan) pul mablag'lari);
4. Tashkiliy tuzilish klassifikatsiyasi (davlat budjeti daromadlari va xarajatlari, respublika budjeti daromadlari va xarajatlari, mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlari);
5. Dasturni amalga oshirish va investitsiyalash faoliyatiga ko'ra (qisqa, o'rta va uzoq muddatli; ichki mablag'lar yoki xorijiy investitsiyalar ishtirokida va boshqalar).

Ma'lumki, davlat budjetining bir qator funktsiyalari mavjud. Jumladan:

1. Taqsimlash funktsiyasi;
2. Nazorat funktsiyalari.

Bugungi kunda ko'pgina iqtisodiy adabiyotlarda davlat budjetining rag' batlantirish funktsiyasiga ko'p urg'u berilmayapti. Buning sababi, ko'pgina davlatlarda surunkali budjet defitsiti yuzaga kelishi bilan davlat moliyasining beqarorlashishiga olib kelmoqda. Albatta, budjet taqchilligi mavjud sharoitda rag' batlantirish masalalaridan ko'ra nazorat funktsiyasi ilgarilaydi. Shu boisdan, bir funktsiyaning o'rnini ikkinchi funktsiya egallaydi.

Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimida budjetning rag' batlantirish funktsiyasi ham yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, har bir budjetdan mablag' oluvchilar (moliyalashtiriluvchilar) o'zlarining maqsadli-dasturiy loyihalarini amalga oshiruvchi tashkilotlar olingan mablag'larni tejashga harakat qiladilar. Bu esa tashkilotlar ixtiyorida qoluvchi, keyinchalik esa faoliyatlarini kengaytirishga va pirovardida jamiyat uchun muhim tadbirlarni amalga oshiruvchi yetakchi bo'g'inga aylanishiga sabab bo'ladi. Shu boisdan, natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish amaliyotini joriy etish jamiyat uchun muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu tariqa natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimining funktsiyalari:


1. Taqsimlash funktsiyasi;
2. Nazorat funktsiyasi;
3. Rag' batlantirish funktsiyasidir.

Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimini joriy etish avvalida budjet mablag'larining baholash ko'rsatkichlariga e'tibor qaratish muhim sanaladi. Masalani oydinlashtirish maqsadida uch budjet tizimi va ularning ko'rsatkichlarini keltirgan holda ularning integrallashuvi asosidagi jarayonni ko'rib o'tamiz.

Texnik samaradorlik – pirovard maqsadlarga erishish uchun optimal variantdagi texnik jarayonlardan olingan samaradorlik. Budjet mablag'larining samarali taqsimlanganligi – so'nggi natijalarga erishish uchun budjet mablag'larining samarali taqsimoti (taqsimotdan o'zgarmagan holda).

Budjet mablag'larining samarali taqsimlanganligi – so'nggi natijalarga erishish uchun budjet mablag'larining samarali taqsimoti (taqsimotdan o'zgarmagan holda).

An'anaviy budjet tizimi (qabul qilingan parametrlarga ko'ra)




3.1–rasm. Budjet tizimlari va ularning ko'rsatkichlari²²

Taqsimlangan mablag'larning ijtimoiy-iqtisodiy samarasi - xarajatlar doim ham samarali bo'lishi uchun (texnik samaradorlik, budjet mablag'larining samarali taqsimlanganligi, texnik samaradorlik nuqtai nazaridan), ammo umumiy dasturni amalga oshirishda barcha jihatlarining ko'zlangan natijalar bera olishligi zarurdir.

Ko'rinib turibdiki, har bir budjet tizimi va ularning ko'rsatkichlari natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimini to'ldiradi. Buning sababi, O'zbekistonda bugungi kunda budjet parametrlarini ishlab chiqishda normativ asoslarda va o'tgan yilgi budjet parametrlaridan foydalanilgan holda ish ko'riladi. Aynan natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimini joriy qilinishining dastlabki boschiqlarida ana shu tuzilmani qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan bir qatorda, davlat xarajatlarini yo'naltirilgan faoliyatlarni baholash maqsadida bir necha tarmoqlardagi savollar bilan to'qnash kelishi tabiiydir. Quyidagi tuzilmada bir necha tarmoqlar keltirilib asosiy savollari qo'yilgan:

²² Ilmiy izlanishlar natijasida jahondagi bir qator yetakchi davlatlarning amaliyotini o'rganish asosida muallif tomonidan tuzilgan.



3.2-rasm. Davlat xarajatlari va moliyaviy hisobotning baholash mezonlari²³

Ko'rib o'tilgan faoliyatlarning baholash mezonlari amalga oshirilayotgan faoliyatlarning tub mohiyatini tashkil etuvchi munosabatlarni samarali amalga oshirish uchun ularning yetarli darajadagi tahlil etilganligi muhim hisoblandi.

Bugungi kunda mamlakatimizda bir necha milliy dasturlar va hukumat qarorlari mavjud bo'lib, ularni natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish amaliyotiga muvofiqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'zlangan uzoq muddatli strategik rejalar hamda hukumat qarorlarini to'laqonlik bilan amalga oshirish kelajakning ustunlaridan hisoblanadi. Budjetning ijrosi davomida turli darajadagi dasturlar amalga oshiriladi. Maqsadli-dasturiy loyihalar natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishning tub mohiyatini tashkil etadi. Shuning uchun, bevosita natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish amaliyotining O'zbekiston sharoitida dasturlarni amalga oshirishning bir necha yo'nalishlari mavjudki, ular natijalarni to'laqonli ijrosi o'z ta'sir kuchiga ega hisoblanadi.

²³Ilmiy izlanishlar natijasida jahondagi bir qator yetakchi davlatlarning amaliyotini o'rganish asosida magistrant tomonidan tuzilgan.

3.2. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘larini shakllantirishni kengaytirish yo‘nalishlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 7 fevral kuni farmonlari bilan 2017–2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini tasdiqladilar. Harakatlar strategiyasi besh bosqichda amalga oshirilib, ularning har biri bo‘yicha yil nomlanishidan kelib chiqqan holda alohida bir yillik davlat dasturini tasdiqlashni nazarda tutadi. “Eng muhim vazifamiz – mamlakatimizda tinchlik va farovonlikni mustahkamlash, odamlarni, xalqimizni hayotdan rozi qilishdan iborat. Buning uchun el-yurtimiz avvalo biz – rahbarlarning faoliyatidan rozi bo‘lishi kerak. Buning uchun har bir rahbar o‘z aravasini o‘zi tortishi, o‘z sohasidagi ishlarning ahvoli uchun o‘zi shaxsan javob berishi kerak. Shundan keyin jamiyatimizda o‘zgarish bo‘ladi, rivojlanish bo‘ladi” –deydi Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev o‘z ma’ruzalarida²⁴.

Harakatlar strategiyasining amalga oshirilishi O‘zbekiston Respublikasining mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalash, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish, qonun ustuvorligini, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlat chegaralarining daxlsizligini, jamiyatda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash yo‘lidagi shaxdam harakatlariga yangi kuch bag‘ishlaydi.

Budjet tashkilotlarida budjet va budjetdan tashqari mablag‘lar sarfini nazorat qilish, budjet va budjetdan tashqari mablag‘lardan oqilona foydalanishni ta’minlash bevosita hisob ishlarini tashkil qilish va yuritish orqali amalga oshiriladi. Budjet tizimida boqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar budjet tashkilotlarining daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi hisobi uslubiyotini yanada takomillashtirishni talab etadi. Budjet tashkilotlarida daromadlar va

²⁴ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.

xarajatlar smetalari ijrosi hisobini yuritishda quyidagi hal qilinishi lozim bo'lgan jihatlar mavjud:

- budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobini bazaviy tamoyillarini umumlashtiruvchi alohida Davlat sektori buxgalteriya hisobi milliy standartlari ishlab chiqilib amaliyotga joriy qilinishi zaruriyati mavjud. Buni quyidagicha izohlash mumkin, ya'ni xo'jalik sub'ektlari uchun tasdiqlangan buxgalteriya hisobi milliy standartlari shuningdek, moliyaviy hisobot xalqaro standartlarida daromadlar va tushumlarni hisobda aks ettirishning aniq talablari belgilangan ammo, budget tashkilotlarida budgetdan tashqari mablag'lar bo'yicha tushumlarni daromad sifatida hisobda aks ettirishning aniq mezonlari belgilanmagan. Bu holat, budget tashkilotlarida tushumlar va daromadlarni hisobda aks ettirishda turlicha yondashuvlarini keltirib chiqaradi.

Yuqorida biz tahlil ob'ektimiz bo'lmish Toshkent moliya institutining budgetdan tashqari mablaglarini shakllantirish va ulardan foydalanish amaliyoti bilan tanishgan edik. Shundan kelib chiqqan holda budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'larini shakllantirish va ulardan oqilona foydalanish tizimini oily ta'lim muassasalari misolida ko'rib chiqamiz.

Oliy ta'lim muassasalarining avtonomlik darajasini oshirish ta'lim xizmatlari bozorida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish, umuman ta'lim xizmatlari sifatini oshirishning yetakchi omilidir. Mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalarining avtonomligini ta'minlash uchun quyidagilarning amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- talabalarni oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish soni va to'lov asosida o'qish narxini belgilash xuquqini bosqichma-bosqich oliy o'quv yurtlari zimmasiga yuklash;

- oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy resurslardan foydalanishlarini cheklovchi bevosita va bilvosita to'siqlarni olib tashlash, shu bilan birga qatorda oliy o'quv yurtlarining davlat budgetidan ajratilgan mablag'lardan samarali foydalanish ma'suliyatlarini oshirish;

- oliy ta'lim tizimida ko'p kanallik moliyalashtirish samaradorligini oshirishni rag'batlantirish;

- oliy ta'lim muassasalarining budjetlararo munosabatlari va moliyaviy faoliyati oshkoraligini ta'minlash;

- oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishda shartnoma mexanizmiga o'tish, ya'ni davlat tomonidan oliy ta'lim muassasalariga ularning faoliyat natijalariga asoslanib moliyaviy resurslarni tabaqalashtirilgan tarzda, shartnoma asosida ajratish;

- oliy o'quv yurtlarida qo'shimcha to'lov asosida taqdim etiladigan ta'lim xizmatlarini ko'rsatishni rag'batlantirish. Chunki undan tushadigan mablag'lar oliy ta'lim muassasalarining ichki moliyalashtirish imkoniyatlarini oshiradi;

- oliy ta'limni boshqarish organlarining ta'lim sohasidagi sub'ektlarning keng o'zaro harakatni ta'minlashi.

Ta'lim xizmatlari bozorida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri mamlakatimizda joriy etilgan kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy elementlari (shaxs, jamiyat, ishlab chiqarish, uzluksiz ta'lim, fan) o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytirishdan iborat.

Ta'lim muassasalarining ishlab chiqarish bilan hamkorligini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, ushbu faoliyatni yo'lga qo'yish quyidagilarga imkon beradi:

- ta'lim muassasalari tomonidan o'tkazilgan ilmiy-tadqiqotlarni amaliyotga qo'llash va ularni yangi texnologiya va mahsulotlarni ishlab chiqarishga yo'naltirish;

- budjetdan tashqari mablag'larni ishlab topish;

- ta'lim berish va tadqiqotlarni olib borish sifatini oshirish.

Oliy ta'lim muassasalarining ishlab chiqarish bilan o'zaro hamkorligini ta'minlash borasida quyidagilar taklif etiladi:

- oliy ta'lim muassasalari bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikda talabalarning ishlab chiqarish amaliyotini o'tashlarini ta'minlash bilan cheklanib

qolmasdan, ular tayyorlagan texnik loyihalar, magistrlik dissertatsiya ishlarini ishlab chiqarish sohasida sinovdan o'tkazishni tashkil etish.

Mamlakatimizda ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasiga erishish innovatsiya tizimini shakllantirish va uning samarali harakatini ta'minlash bilan bog'liq. Oliy ta'lim muassasalarida innovatsiyalarga asoslangan faoliyatni ta'minlash maqsadida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- turli texnologiyalarni takomillashtirishni ta'minlovchi loyihalarni yaratish;
- fundamental va amaliy tavsifdagi tadqiqotlarning olib borilishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish;
- o'quv jarayonida loyiha va tadqiqot vazifalarining integratsiyasini ta'minlovchi ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish.

Ma'lumki, oliy o'quv yurtlari o'rtasidagi sog'lom raqobat ularning o'z faoliyatlarini doimo takomillashtirib borishni talab etadi va rag'batlantirib turadi. Ish beruvchi tashkilot oliy ta'lim muassasalarida bilim berish vazifalari va natijalarini aniqlashda manfaatdor taraf bo'lib xisoblanadi. Shu bois oliy ta'limning maqsad va vazifalarini aniqlashda biznes sohasining (ish beruvchi) o'zni sezilarli darajada oshdi. Demak, ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonida biznes sohasi (ish beruvchilar) va akademik tashkilotlar bir-birlariga tayanib, bir-birlarini qo'llab-quvvatlab, birgalikda faol qatnashishlari lozim. Ta'lim xizmatlari bozorining rivojlanishini ta'minlash ushbu sohani moliyalashtirishni takomillashtirish masalasi bilan bog'liq. Buning uchun esa quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- oliy ta'lim muassasalariga ajratilayotgan budget mablag'laridan samarali foydalanish uchun rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda oliy o'quv yurtlarida strategik boshqaruv tamoyillariga o'tishni rag'batlantirish;
- oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishda raqobat va shartnomaga asoslangan mexanizmlarga o'tish, qo'shimcha xaq to'lashga asoslangan xizmatlarni ko'rsatishni keng yo'lga qo'yish;

- ko‘p kanalli moliyalashtirishni takomillashtirish, ajratilgan budget mablag‘laridan samarali foydalanishni ta‘minlash, oliy ta‘lim muassasalari moliyaviy munosabatlarining oshkoraligini ta‘minlash;

- qo‘shimcha pullik ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatishni kengaytirish;

- ta‘lim sohasining investitsion jozibadorligini oshirish.

Oliy ta‘lim tizimining investitsiya jozibadorligini ta‘minlashda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- oliy ta‘lim muassasalarining ijtimoiy va xuquqiy asoslarini mustahkamlash orqali ularning iqtisodiy mustaqilligini kengaytirish;

- ta‘lim muassasalari moliyaviy faoliyatlarining oshkoraligini ta‘minlash;

- ta‘limni boshqarishning ijtimoiy institutlarini rivojlantirish orqali mazkur sohada investitsion risk darajasining pasayishiga sharoit yaratish;

- oliy ta‘lim muassasalarini boshqarish samaradorligini oshirish.

III bob bo‘yicha xulosa

Bugungi kunda O‘zbekistonda budget jarayonida o‘rta muddatli rejalashtirish mexanizmini joriy qilishga dastlabki urinishlar bo‘layotganligini va budget xarajatlarining natijaviyligini ta‘minlovchi nazorat qilish mexanizmining endigina shakllanayotganligini e‘tirof etish lozim.

Iqtisodiyotni markazdan turib boshqarish hukm surgan mamlakatlarda boshqa qator g‘arb davlatlari kabi, budgetni tayyorlashda «xarajatli budget» usulidan (zatratiy metod) foydalanib kelingan. Xarajatlarga asoslangan budgetni tuzish usuli resurslarni rejalashtirish va taqsimlashning shunday bir usulidirki, bunda resurslar va ularni sarflashdan erishiladigan natijaviylik juda kuchsiz bo‘lib hisoblanadi, chunki xarajatlar usulida asosiy e‘tibor mavjud resurslarga qaratiladi.

O‘z navbatida, “natijaga qaratilgan budgetlashtirish” strategik maqsad va vazifalarni asosiy maqsad qilib o‘z oldiga qo‘yadi, davlat tashkilotlari faoliyatlari natijasidan ijtimoiy-iqtisodiy natijalar kutadi. Bu esa barcha resurslarni ma‘lum bir dasturlar orqali sarflanishi orqali amalga oshiriladi. Davlat, mamlakatdagi bozor

munosabatlarning qay darajada shakllangan va rivojlangan bo'lishiga qaramay, ijtimoiy sohalarni boshqarish, ularning faoliyatini tashkil etish va moliyalashtirishda ishtirok etishi zarur, ularning normal darajada faoliyat qilishi uchun davlat barcha huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratib berishi shart. Budjetdan moliyalashtiriladigan sohalarga mablag'larni to'liq hajmda safarbar etish imkoniyatini ta'minlash maqsadida davlat daromadlarining barqarorligini ta'minlash va xarajatlarning aniq hisob-kitobini olib borish lozim. Ijtimoiy sohalardagi ta'lim, sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifat standartlarini o'rnatish va ularga amal qilinishini nazorat qilishni yo'lga qo'yish lozim, aks xolda xizmatlar narxining oshib borishi bilan ularning sifati o'rtasidagi bog'liqlik uzilib bormoqda, malakali xizmat qimmat turishi bilan birga, sifat standartiga ham javob berishi kerak, deb hisoblaymiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Magistrlik dissertatsiya ishimizning yuqoridagi paragraflarida biz budget tashkilotlarini smeta asosida rejalashtirish va moliyalashtirish tartiblarini o'rgandik, bu borada bugungi kunda olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini ochib berishga harakat qildik, budget tashkilotlarini budgetdan tashqari manbalar hisobidan mustahkamlash yo'llarini tadqiq qilib, budget amaliyotida budgetdan tashqari markazlashgan va markazlashmagan manbalardan foydalanish imkoniyatlari va shart-sharoitlarini o'rganib chiqib, quyidagi xulosalarni shakllantirishga muvaffaq bo'ldik:

- bizning fikrimizcha, davlat, mamlakatdagi bozor munosabatlarining qay darajada shakllangan va rivojlangan bo'lishiga qaramay, ijtimoiy sohalarni boshqarish, ularning faoliyatini tashkil etish va moliyalashtirishda ishtirok etishi zarur, ularning normal darajada faoliyat qilishi uchun davlat barcha huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratib berishi shart;

- budgetdan moliyalanadigan sohalarga mablag'larni to'liq hajmda safarbar etish imkoniyatini ta'minlash maqsadida davlat daromadlarining barqarorligini ta'minlash va xarajatlarning aniq hisob-kitobini olib borish lozim;

- ijtimoiy sohalardagi ta'lim, sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifat standartlarini o'rnatish va ularga amal qilinishini nazorat qilishni yo'lga qo'yish lozim, aks xolda xizmatlar narxining oshib borishi bilan ularning sifati o'rtasidagi bog'liqlik uzilib bormoqda, malakali xizmat qimmat turishi bilan birga, sifat standartiga ham javob berishi kerak, deb hisoblaymiz;

- aholining nochor, ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamlariga bepul xizmatlar ko'rsatilishini davlat bundan keyin ham o'z zimmasiga olishi, bu xizmatlarning to'liq moliyalashtirilishiga erishishi lozim;

- budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'larni jalb qilishga bo'lgan harakati ularning asosiy faoliyatiga, tashkilotning missiyasini bajarishga putur yetkazmasligi kerak, shuni unutmaslik lozimki, budget tashkiloti notijorat

asosida faoliyat yurituvchi muassasa, shuning uchun unda marketing masalalari o'ylab, jamiyatning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda hal etilishi kerak;

- aksariyat aholi ongida ta'lim, va ayniqsa, sog'liqni saqlash xizmatlarining bepul taqdim etilishi kerak, degan stereotiplar mustahkam o'rinishgan, bu esa budget tashkilotlarini pullik asosga o'tkazish jarayonida aholi tomonidan noroziliklarga olib kelmoqda, lekin bozor iqtisodiyoti talablari, qolaversa, "pullik narsa qadrli bo'ladi" degan naqldan kelib chiqib, budgetning chegaralanganligi sharoitida budget tashkilotlarining ortib borayotgan ehtiyojlarini faqat davlat mablag'lari hisobiga qoplashning ob'ektiv tarzda imkoni yo'qligini tushunib yetish vaqti keldi;

- hozirgi kunda budget tashkilotlarining barcha budgetdan tashqari daromadlari barcha soliqlar va majburiy to'lovlardan ozod etilganligini e'tirof etgan holda, budget tashkilotlarining tijorat faoliyatlarini davlat bundan keyin ham rag'batlantirib borishi maqsadga muvofiq,;

- budget tashkilotida shunday muhitni yaratish kerakki, budget tashkiloti tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar natijasidan unda ishlayotgan ko'p sonli xodimlarning shaxsiy manfaatlari emas, tashkilot manfaatlari ustuvor bo'lishi lozim, deb hisblaymiz.

Ushbu xulosalardan kelib chiqqan holda istiqbolda budget tashkilotlarini mablag'larini shakllantirish va ulardan samarali foydalanishni tashkil etish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni berishni lozim topdik:

Birinchidan, davlat budgetini shakllantirish va uning mablag'laridan foydalanish ustidan operativ nazoratni ta'minlash maqsadida o'z faoliyatlari bilan bog'liq munosabatlar doirasida budget tizimini boshqarish organlari doirasida integrallashgan axborot tizimlarini yaratish lozim.

Ikkinchidan, mudofa sektoridagi harajatlar tizimini davlat budjeti g'azna ijrosi bilan qamrab olish mehanizmini ishlab chiqish lozim. Bunda horijiy mamalakatlarda ushbu sohaning g'azna ijrosi bilan qamrab olish mehanizmini o'rganish orqali erishish;

Uchinchidan, sog'liqni saqlash tizimidagi muassasalarni aralash moliyalashtirish tizimiga erishish, ixtiyoriy tibbiy sug'urtani keng joriy qilish, mavjud maxsus sug'urta tashkilotlari orqali shartnomalar asosida sog'liqni saqlash muassasasini qo'shma moliyalashda ishtirokini rag'batlantirish va yo'lga qo'yish, mamlakat miqyosida sog'liqni saqlash tizimi xarajatlarini moliyalashtirish va uni rejalashtirishda majburiy ijtimoiy tibbiy sug'urta tizimini joriy qilish lozim;

To'rtinchidan, budjetdan mablag oluvchi budjet tashkilotlarining o'z harajatlarini mablag bilan ta'minlashda mustaqil o'z faoliyati natijasida shakllanadigan mablag'lardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish. Masalan, bo'sh turgan ob'ektlarni ijaraga berish, o'z faoliyatidan kelib chiqqan holda tijorat asosida ko'riladigan daromadlar tizimini shakllantirish va o'z navbatida bu yo'l bilan budjet mablag'lariga bo'lgan talabni qisqartirib aksincha o'z daromadlari hisobidan moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish lozim;

Beshinchidan, ma'lumki, ko'pchilik oliy o'quv yurtlarida professor-o'qituvchilarni budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moddiy rag'batlantirish bir hillikda, ya'ni bir hil summalarda amalga oshiriladi. Bunda professor-o'qituvchilar va boshqa xodimlarni moddiy rag'batlantirishni tabaqalashtirilgan mexanizmlarini ishlab chiqish lozim, ya'ni ularni ish faoliyati natijalariga qarab tabaqalashtirish lozim. Bunda ish jarayoni unumdorligi oshadi va ortiqcha sarf-xarajatlar oldi olinadi.

Oltinchidan, budjetdan tashqari tushumlarning muhim manbai sifatida chet el mamlakatlari uchun mutaxassislar tayyorlash xizmat qilishi mumkin. Lekin ta'lim uchun to'lov masalalari ta'lim muassasasi beradigan diplomning sifati, uning xalqaro tashkilotlar, ishbilarmonlar doirasi, jamoatchilik, ta'lim muassasalari xalqaro akkreditatsiyasi tomonidan tan olinishi bilan bog'liq. Ana shu masala ijobiy hal etilsa, ya'ni milliy oliy ta'lim muassasalari tomonidan beriladigan diplomlar xalqaro miqyosda tan olinsa, ham oliy ta'lim muassasalarining nufuzi oshardi, ham bu yo'l bilan valyuta tushumlarini ko'paytirish imkoni kengaygan bo'lar edi;

Yettinchidan, Oliy o'quv yurtlarini moliyalashtirishning noan'anaviy metodlarni qo'llash ya'ni, endaument investitsion fondlarini rivojlantirish oliy o'quv yurtlari moddiy texnika bazasini kuchaytirishga, moliyaviy mustaqilligini kengaytirishga yordam beradi va oliy o'quv yurtlarini reytingini tuzishda endaumentga tushumlar mezonidan foydalaniladi. O'zbekiston oliy o'quv yurtlarini jahon ta'lim tizimiga jalb qilinish integratsiyalashuvi ularni maqsadli fondlarni yaratishga undaydi, chunki jahon amaliyotida oliy o'quv yurtlarini reytingini tuzishda endaumentga tushumlar mezon muxim ko'rsatkich sifatida qo'llaniladi. Ushbu yetakchi xorijiy universitetlar amaliyotini mamlakat oliy o'quv yurtlarida respublikamizni o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ijodiy qo'llash oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishni yaqin istiqbolida barqarorlashtirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy xujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 16-son, 176-modda.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'RQ-360-son. 26.12.2013. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y. №52-I-son.

1.3. O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-938-XII-son, 03.09.1993. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 17-son, 173-modda.

1.4. O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni. 702-II-son, 02.12.2014. O'zbekiston Respublika qonun hujjatlari to'plami, 2015-y., 33-son, 439-modda.

1.5. "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonunining 1998 yil 1 mayda tasdiqlangan yangi tahriri (616-I-son Qonun) (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).

1.6. O'zbekiston Respublikasi "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-376-son. 25.09.2014. O'zbekiston Respublika qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 39-son, 488-modda.

1.7. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi -T., O'zbekiston 2008-yil (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).

1.8. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi- T., O'zbekiston 2010-yil (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).

1.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni, Xalq so'zi, 2017-y., 28 (6722)-son; O'zbekiston Respublika qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

1.10. “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 17-dekabr F-4760-son farmoyishi, O‘zbekiston Respublika qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 8-son, 119-modda.

1.11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 22-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2016-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2455-sonli qarori.

1.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2699-sonli qarori.

1.13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-martda “Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2847-sonli Qarori. O‘zbekiston Respublika qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 13-son, 201-modda.

1.14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni. 2017 yil 24 may.

1.15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.05.2011 yil 145-son Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 21 dekabrda 595-son Qarori bilan tasdiqlangan “Xalq banki tomonidan fuqarolarni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida shaxsan hisobga olishni yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi Qarori.

1.16. Budget tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabr 414-son Qarori (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 16.06.2007 yil 148-son qarori bilan tasdiqlangan yangi tahriri).

1.17. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining “Budget tashkilotlari va budget mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”

gi buyrug‘i (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2014 yil 15 dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2634)

1.18. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2012 yil 5 oktyabrdagi “Budjet tashkilotlari daromadlari va xarajatlarining buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 74-sonli buyrug‘i

1.19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 12 avgustdagi “Budjet tashkilotlari tomonidan tadbirkorlik sub’ektlarining xayriya ehsonlari shaklidagi mablag‘laridan foydalanishning oshkoraligi va samaradorligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 227-son qarori

1.20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 12 avgustdagi “Budjet tashkilotlari tomonidan tadbirkorlik sub’ektlarining xayriya ehsonlari shaklidagi mablag‘laridan foydalanishning oshkoraligi va samaradorligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 227-son qarori

1.21. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010 yil 17 dekabrda “Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi 105-son buyrug‘i (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2010 yil 22 dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat

1.22. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 8 apreldagi “Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 102-son qarori va boshqalarraqami 2169)

1.23. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2016 yil 22 noyabrdagi 88-son “O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimi budjetlarining g‘azna ijrosi qoidalarini tasdiqlash haqida” buyrug‘i (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2016 yil 22 dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2850)

1.24. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. T: O‘zbekiston . 2009. 56 b.

1.25. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. – T.: O‘zbekiston . 2013. 32 b.

1.26. Karimov I.A. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. – T.: O'zbekiston . 2014. 32 b.

1.27. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: O'zbekiston . 2014. 32 b.

1.28. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. – T.: O'zbekiston . 2016. 72 b.

1.29. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O'zbekiston ” NMIU, 2017. – 488 b.

1.30. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: “O'zbekiston ” NMIU, 2017. – 104 b.

1.31. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O'zbekiston ” NMIU, 2017. – 56 b.

1.32. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O'zbekiston ” NMIU, 2017. – 48 b.

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar

2.1. Azizova I.A. “Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish” T.: 2010 y. “infoCOM.UZ MChJ” nashriyoti 152 bet.

2.2. Afanasev M.P. Byudjet i byudjetnaya sistema (izd:2), Yurayt, 2011g. 782 str.

2.3. Burxonov U. Davlat xaridi. «infoCOM.UZ». Toshkent-2010 y. 160 bet

- 2.4. Vaxabov A.V., Srojiddinova Z.X. Gosudarstvenniy byudjet: Uchebnik. T. "IQTISOD-MOLIYa", 2007 g.. 454 str.
- 2.5. Vaxobov A. V., Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarish. O‘quv qo‘llanma. - T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2008 y. 287 bet
- 2.6. Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B. Budjet nazorati va auditi: O‘quv qo‘llanma / T.: «infoCOM.UZ». 2009 y. 192 bet.
- 2.7. Malikov T.S., Haydarov N.X. Budjet daromadlari va xarajatlari. - Tashkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2007 y. - 245 bet
- 2.8. Malikov T.S., Haydarov N.X. Davlat budjeti.- Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2007y. - 84 bet
- 2.9. Neshitoy A.S. Budjetnaya sistema Rossiyskoy Federatsii (izd:10), Dashkov i K. 2011 g. 336 str.
- 2.10. Nurmuxamedova B., Kabirova N. “Moliya”, O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2014 y. 207 bet
- 2.11. Srojiddinova Z. O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimi. «infoCOM.UZ». Toshkent-2010y. 500 bet
- 2.12. Srojiddinova Z. Budjetlararo munosabatlar. «infoCOM.UZ». Toshkent-2010 y. 156 bet.
- 2.13. Seleznyov A.Z. Byudjetnaya sistema Rossiyskoy Federatsii. Magistr. 2011g. 383 str.
- 2.14. Xodjaev R., Egamberdiev A., Isaev O. Gosudarstvenniy byudjet. Uchebnoe posobie.- T.: “IQTISOD- MOLIYa”, 2008 g. 112 str.
- 2.15. Qosimova G.A. Mahalliy budjetlarni tuzish va ijrosini ta’minlash. O‘quv qo‘llanma. T.: “Fan va texnologiya” 2007 y. 275 bet.
- 2.16. Qosimova G. Davlat budjeti ijrosining g‘aznachilik tizimi. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2008 y. 272 bet
- 2.17. Qosimova G., Shaakramov K. Mahalliy budjetlar. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Moliya”, 2012. 260 b.

2.18. Haydarov M., A. Suvonqulov, B. Sugirbaev, B. Nurmatov. Davlat budjeti ijrosining gʻaznachilik tizimi. Oʻquv qoʻllanma. T.: Iqtisod-moliya, 2010 y. 163 bet.

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

3.1. Haydarov N. Davlat qarzlarni bartaraf etish masalalari. // Moliya. - Toshkent. 2013. -№1. – B. 14-19.

3.2. Eshnazarov T. Davlat moliyasi tizimini takomillashtirish va uni rivojlantirish omillari. // Iqtisod va moliya. -Toshkent. 2012. -№12. – B.51-56.

3.3. Temirov M. Davlat moliyasi: yangi texnologiyalar va ularni moliyalashtirish. // Iqtisod va moliya. -Toshkent. 2013. №6. – B.19-22.

3.4. Sharopova M. Ijtimoiy soha xarajatlari samaradorligini oshirishda budjetdan moliyalashtirish tamoyillarining ahamiyati. // Moliya. -Toshkent. 2013. №1. – B. 32-35.

3.5. Oʻrozov U. Oʻzbekiston Respublikasining Budjet Kodeksi: mohiyati, ahamiyati va afzalliklari. –Toshkent. 2014. №1- B.24-29.

3.6. Qosimova G.A. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va budjet ijrosining gʻaznachilik sharoitida davlat qarzlarni boshqarish. Davlat moliyasini isloh etishning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman tezislar toʻplami. Toshkent. Iqtisod-moliya. 2010 yil. 19 noyabr. 111-115 b.

3.7. Qosimova G.A. Gʻaznachilik sharoitida budjet-soliq va pul-kredit siyosatining muhim tadbirlari. Oʻzbekiston da sugʻurta bozorining rivojlanish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari toʻplami. -Toshkent. 2012. –B.390-393.

3.8. Qosimova G., Maxmudov J. Gʻaznachilik tizimi faoliyatini tashkil etishda rivojlangan mamlakatlar tizimidan foydalanish. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliya, bank, soliq, sugʻurta, qimmatli qogʻozlar bozori, investitsiya, buxgalteriya hisobi va audit tizimlarini takomillashtirish

masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. - Toshkent. 2012. –B.43-44.

3.9.Qosimova G. Budget mablag'lari samaradorligini oshirish. \ Jamiyat va boshqaruv. . -Toshkent. 2010. №1. –B.70-72.

3.10. Qosimova G.Davlat Moliyasini boshqarishda Budget Kodeksining ahamiyati.Moliya jurnali.-Toshkent.2014. №1.-B.19-23

3.11. Qo'chqorov T. O'zbekiston da milliy g'aznachilikning avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy etish istiqbollari. \ Moliya. -Toshkent. 2011. № 2. –B.137-141.

3.12. Qosimova G., Elmurodov U. G'aznachilik sharoitida budget tashkilotlaridagi risklarni boshqarish.\ Birja Ekspert. -Toshkent. 2012. № 6. –B. 3-a6.

3.13. Qosimova G.A. G'aznachilik tizimida davlat xaridlarini samarali boshqarish. \ Biznes-Ekspert. 2013 yil. №10-11. –B.6-8.

Internet saytlari

- www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi);
- www.mehnat.uz (O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining rasmiy sayti);
- www.lex.uz (O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi);
- www.publicfinance.uz (O'zbekiston da byudjet islohotlari loyihasi);
- www.pfru.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi).